جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
23-fevral
№ 9(9)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

XAYRLI TASHABBUS

BARCHAMIZ VATAN HIMOYACHISI, TINCHLIK POSBONI BO‘LISHIMIZ ZARUR

Yoshlarni harbiy kasbga yo‘naltirish, Vatan himoyasiga har doim shay turadigan yovqur askar qilib tarbiyalashda adabiyotning, kitobxonlikning alohida o‘rni bor. Shu maqsadda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Qurolli Kuchlar tarkibidagi barcha tuzilmalar o‘rtasida mustahkam hamkorlik o‘rnatilgan. Ma’naviyat kechalari, kitobxonlik tadbirlari va tanlovlari, kitob taqdimotlari, ijodiy uchrashuvlar muntazam tashkil etilmoqda.

Ma’lumki, mamlakat taqdiri millat ma’naviyati bilan chambarchas bog‘liq eng muhim masaladir. Vatan tinchligiga daxldorlik tuyg‘usini chuqurroq his etish, ta’bir joiz bo‘lsa, yurt daxlsizligini yurakning tub-tubigacha singdirmoq kerak. Sarhadlarimizni qo‘riqlayotgan askar o‘g‘lonlarimiz yuragiga shunday ma’naviy quvvat beraylikki, ular bajarayotgan vazifalariga shunchaki faqat harbiy xizmat deb qaramasinlar. Ularning qalbida ona Vatan tuprog‘ini asramoqning yuksak sharafi o‘chmas olovga aylansin.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2023-yilda Yozuvchilar uyushmasi tomonidan Mudofaa vazirligi hamda boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda “Mard askarga sovg‘a” turkumida ixcham kitoblarni nashr etish yo‘lga qo‘yilgan edi. Bu kitoblar ilk bora 11 nomda nashrga tayyorlanib, 35 ming nusxada chop etilib, barcha harbiy qismlar va okruglar, harbiy ta’lim muassasalariga yetkazildi. Shundan so‘ng “Mard askarga sovg‘a” loyihasini muntazam davom ettirish rejalashtirildi. Shu munosabat bilan 2024-yilda ushbu turkumda yana 7 nomdagi kitob nashrga tayyorlandi.

Harbiylar hatto jismoniy va harbiy tayyorgarlik vaqtlarida ham bunday ixcham kitoblarni yonida olib yurib, mutolaa qilish imkoniga ega.

Kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida ushbu turkum kitoblar taqdimoti o‘tkazildi. Unda Mudofaa vazirligi mas’ul xodimlari, harbiy xizmatchilar, harbiy ta’lim muassasalari va “Temurbeklar maktablari” kursantlari, muddatli harbiy xizmatchilar, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a’zolari, faxriylar, taniqli shoir va yozuvchilar, san’atkorlar ishtirok etdi. Taqdimot jarayonini videokonferens-aloqa tizimi orqali Mudofaa vazirligining tegishli harbiy okruglari xizmatchilari ham onlayn tomosha qilishdi.

Anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri, general-leytenant Bahodir Qurbonov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, O‘zbekiston Kinematografiya agentligi Bosh direktorining birinchi o‘rinbosari Shuhrat Rizayev va boshqalar so‘zga chiqdi. Askarlar va kursantlar doim yonida olib yuradigan bunday cho‘ntak kitoblar yoshlarni o‘z burchiga sadoqatli, jasur va yovqur bo‘lishga da’vat etishi ta’kidlandi.





Qurolli Kuchlar akademiyasi kutubxonasiga Yozuvchilar uyushmasi tomonidan chop etilgan kitoblar va “Turkiy adabiyot durdonalari”ning yuz jildligi tuhfa qilindi. Shuningdek, o‘zbek kino ustalari tomonidan suratga olingan harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi filmlar hamda taniqli rassomlarning yangi asarlari jamlanmasi taqdim etildi.

Anjumanda kino, teatr, adabiyot, tasviriy san’at, noshirlik sohalarining bir guruh faol vakillari O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining “Yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

(Davomi 2-sahifada).

MOZIYGA QARAB...

MUXTORIYAT LOYIHASI

Turkiston mintaqasidagi jadidlik harakati ham o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga, bir tarafdan, XIX-XX asrlar oralig‘ida jahonda sodir bo‘lgan ulkan taraqqiyot va o‘zgarishlar, ikkinchi tarafdan, Rossiya imperiyasi tarkibidagi turkiy va musulmon xalqlari yashayotgan hududlarda og‘ir siyosiy, ijtimoiy va madaniy muammolar ta’sirida vujudga kelgan tom ma’nodagi milliy uyg‘onish harakatidir. Shu ma’noda jadidlik bugun biz uchun Turkiston tarixida chuqur ijobiy iz qoldirgan milliy meros hisoblanadi.

Turkistondagi jadidlarning dastlab ma’rifatparvarlikka asoslangan faoliyati asta-sekin ijtimoiy-siyosiy tus ola boshladi. Bunda Rus-yapon urushidagi mag‘lubiyat orqasidan Rossiya imperiyasida yuz bergan 1905–1907-yillardagi Birinchi rus inqilobi natijasida konstitutsion monarxiyaga o‘tish hamda parlament – Davlat dumasining ta’sis etilishi, 1905–1911-yillarda Erondagi konstitutsion inqilob, 1908-yildagi Yosh turklar inqilobi hamda jahondagi boshqa muhim voqealarning ahamiyati katta edi.

Davlat dumasiga Turkistondan ham deputatlarning saylanishi va dumada musulmonlar fraksiyasining shakllanishi orqali jadid ziyolilar Turkiston xalqi manfaatlarini qonuniy yo‘l bilan himoyalash hamda o‘lka uchun madaniy muxtoriyat huquqini olishga harakat qilishadi. Mana shu paytda Mahmudxo‘ja Behbudiy 1907-yil noyabr oyida Davlat dumasi musulmon fraksiyasiga murojaat qilib, Turkiston o‘lkasi Rossiyaning Yevropa qismidan ham ko‘proq muxtoriyat huquqiga haqli ekanini ta’kidlaydi hamda fraksiyaga o‘zining Turkiston o‘lkasi uchun diniy va ichki ishlardagi (“Idorayi ruhoniya va doxiliya”) erkinlikni ifoda etuvchi “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasini taqdim etadi.

(Davomi 6-sahifada).

RAG‘BAT

KITOB O‘QIGAN “KOBALT” MINADI

Haqqoniy kitoblar – ma’nolar xazinasi. Bu xazinadan bahramand bo‘lganlarning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, muomalasi, odob-axloqi nurli-ko‘rkam bo‘ladi. O‘qiganlar bilan o‘qimaganlar bahslashishi qiyin. Shunga ko‘ra, yetti yildirki, “Yosh kitobxon” respublika tanlovida o‘qiganlar o‘zaro fikr maydonida bahs yuritishadi. Kitobxonlarning bilimi, zakosi, yodkashligi, tafakkur ko‘lami taqqoslanadi. Munosibi Prezident sovg‘asi – avtomashina bilan taqdirlanadi. Nazarimda, dunyoning birorta mamlakatida mavjud bo‘lmagan mutlaqo o‘ziga xos ma’rifat musobaqasi bu.

Mamlakat yoshlarining kitob o‘qishi, uqishi va bilib olganlarini hayotiga tatbiq etishi natijasida ziyoli shaxslar maydonga chiqadi. Bugun yuzlab, minglab yoshlar qalbiga ilm, haqqoniyat, o‘zlariga ishonch urug‘i ekilmoqda. Kelajakda buning mevasi Uchinchi Renessans o‘laroq meva beradi. Yoshlikda shuuriga muhrlangan kitoblarni umr bo‘yi eslaydi va ulardagi hikmatlardan foydalanadi, albatta.

(Davomi 2-sahifada).

NOSHIRLIK

ISHONCHNI TIRILTIRMOG‘IMIZ KERAK

Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda 500 dan ortiq nashriyot faoliyat yuritmoqda. Taassufki, bu nashriyotlar orasida kitobga shunchaki bir mahsulot yoki daromad manbai deb emas, qalb ozig‘i deb qaraydiganlar juda kam. Frensis Bekon ta’biri bilan aytganda, “hikmat kemasi”da suzish xos kishilarning ma’naviy mashg‘ulotiga aylangan.

“Akademnashr” nashriyoti direktori Sanjar Nazar ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirish uchun tinmay izlanayotgan, tom ma’noda ziyo ulashayotgan insonlardan biri. Sanjar Nazar bilan suhbatimiz muallif-noshir-kitobxon aylanasidagi bog‘liqlik va nomuvofiqliklar haqida bo‘ldi.

(Davomi 5-sahifada).

E’TIROF

MAXTUMQULI – O‘ZBEKNING O‘Z SHOIRI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2024-yil 19-fevral kuni “Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorga imzo qo‘ydi.

Darhaqiqat, Maxtumquli Firog‘iyning betakror poetik tafakkuri va jahon she’riyati xazinasiga qo‘shgan hissasi G‘arb-u Sharqdagi eng dongdor shoirlar ulushidan aslo kam emas. Bu orif, donishmand shoir o‘z millati boshidagi toj va tojidagi marjon-marvariddir.

(Davomi 2-sahifada).

ZAMON JADIDLARI

MA’RIFATGA YURAGIDAN YO‘L OCHGANLAR



Dunyoda ajoyib ishlar ko‘p. “Ko‘chmanchi”, “suzuvchi”, “intizomsiz”, “yer osti” kabi maktablar to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlarni o‘qiganman. Ammo atigi to‘rt xonali ta’lim dargohi haqida eshitmagandim. Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanida bir tadbirkor himmati bilan qurilgan yangi o‘quv maskani haqida maqola yozish niyatida qahramonlarimni qidirdim. “Xudo degan quliga, keltiradi qo‘liga”, deganlariday, direktorning o‘zi Toshkentda malaka oshirayotgan ekan. U bilan suhbatimiz o‘sha, atigi to‘rt sinfxonasi bor maktab haqida bo‘ldi.

(Davomi 3-sahifada).



BARCHAMIZ VATAN HIMOYACHISI, TINCHLIK POSBONI BO‘LISHIMIZ ZARUR

Boshlanishi 1-sahifada.

“Mard askarga sovg‘a” turkumidagi to‘plamlarda iste’dodli shoir va yozuvchilarimizning yuksak insoniy fazilatlari, Vatan madhi, el-yurt qadri tarannum etilgan eng sara she’rlari, ta’sirchan hikoyalari jamlangan. Ushbu asarlar nafaqat harbiylarni, balki yuragida yurt tuyg‘usi jo‘sh urgan barcha yoshdagi yurtdoshlarimizni yuksak vatanparvarlikka, jasorat va matonatga, fidoyilikka da’vat etadi. Kitoblardan o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandalari, bugungi yosh shoirlarning ijodidan namunalar o‘rin olgan.

Anjumanda taniqli san’atkorlar va harbiylarning badiiy jamoalari ishtirokida konsert dasturi namoyish qilindi, Qutlibeka Rahimboyeva, Salim Ashur, Shodi Otamurod, Shahriyor Shavkat kabi shoirlar to‘plamga kiritilgan she’rlarini o‘qib berdi.

Bir so‘z bilan aytganda, harbiy vatanparvarlik ruhida o‘tgan taqdimot tadbiri ishtirokchilar qalbida shaxt-u shiddat, jasorat va shijoat tuyg‘ularini alangalatdi. Ijodkorlar va harbiy xizmatchilar orasida mustahkamlanib borayotgan bu kabi hamkorliklar yurt tinchligi yo‘lida xizmat qilishi shubhasiz.

Zero, xalq va armiya birdamligi katta qudrat, san’at va adabiyot esa quvvatlantiruvchi kuchga ega. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, o‘zbekning bek so‘zli shoirasi Qutlibeka Rahimboyeva so‘zi bilan aytganda:

Ozod O‘zbekiston, ozod o‘zbeklar,
Har tovshi – bir shunqor ushlab turar tug‘.
Shunqorim, tug‘ingni balandroq tikla,
Dunyoda bundan-da yaxshi unvon yo‘q.

Ma’mura ZOHIDOVA

MAXTUMQULI – O‘ZBEKNING O‘Z SHOIRI

Boshlanishi 1-sahifada.

Yuqorida zikr etilgan qarorda juda muhim fikr-mulohazalar bor: “O‘zbekiston dunyoda Maxtumquli asarlari eng ko‘p nashr qilinadigan va o‘qiladigan mamlakatlardan biri sifatida e’tirof etilishi, albatta, bejiz emas. Yurtimizda mumtoz shoirning she’rlari va ular asosida yaratilgan qo‘shiqlar kirib bormagan biror-bir xonadon, uning nomini bilmaydigan biror-bir o‘zbek topilmaydi. Maxtumquli asrlar mobaynida xalqimizning o‘z shoiriga aylangan. Uning she’rlari o‘zining teran falsafiy ma’nosi, xalqona ruhi, yuksak badiiyati bilan baxshi va hofizlarimiz, shoirlarimizga ilhom bag‘ishlab, hamisha davralarda yangrab, el-yurtimiz qalbida yashab keladi.

Maxtumqulining o‘z davrida Xivadagi mashhur Sherg‘ozixon madrasasida tahsil olgani, Alisher Navoiydek buyuk so‘z san’atkorini o‘ziga ustoz deb bilgani xalqlarimiz o‘rtasidagi chinakam do‘stlikning ajoyib namunasidir. Maxtumquli Xivada juda ko‘p ustoz va maslakdoshlar, do‘st-yor va muxlislar orttirgan, bu yerda kechirgan yillarini minnatdorlik bilan eslab, go‘zal she’rlar bitganini o‘zbek kitobxonlari yaxshi biladi.

O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik hamda yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari tarixida yangi davr boshlangan hozirgi paytda Maxtumquli Firog‘iyning o‘lmas badiiy merosi xalqlarimiz uchun yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikki qardosh el uchun birdek ardoqli bo‘lgan shoirning barkamol asarlari mamlakatimizda muntazam ravishda, yirik adadlarda nashr etilmoqda. Toshkent va Xiva shaharlarida shoir xotirasiga bag‘ishlab bunyod etilgan yodgorlik majmualari tabarruk ziyoratgohlarga aylangan”.

Maxtumquli yilida keng miqyosda xalqaro anjumanlar tashkil qilinadi. Nazarimda, bu donishmand shoir o‘z ijodiy merosi bilan yil davomida qon-qardoshlar qalbini bir-biriga yana ham mustahkam bog‘laydi; dildosh odamlarning o‘zaro diydoriga sababchi bo‘ladi. Shunday buyuk bir shoirning dunyoga kelishi nafaqat turkman yoki umumturkiy adabiyotining, balki dunyo adabiyotining ham baxt-u iqbolidir. Chunki turkman she’riyati, turkmanning bebaho so‘zi Maxtumquli vositasida dunyo adabiyoti durdonalari qatoridan joy oladi; bepoyon ma’naviyat ummoniga borib qo‘shiladi. Maxtumquli – nosih shoir. Uning niyati ezgulik, yaxshilik va nasihatdir. O‘gitlari o‘rinli, ma’nili, mantiqli, umuminsoniy mohiyatga ega, albatta. Zotan, shoir quruq nasihatni yoqtirmaydi. Eng avval inson o‘z so‘ziga o‘zi amal qilmog‘i lozim:

Garchi nasihatdir ellarga so‘zing,
El olmasdan avval amal qil o‘zing,
Olimga yondashsang, ochilar ko‘zing,
Johilga yondashsang ko‘rdek bo‘larsan.

Olim bilan johil – ko‘zi ochiq odam va ko‘r. Maxtumquli she’rlarining fikr oqimida bunday tazodli va ta’sirli misralar juda ko‘p.

Maxtumquli o‘z she’rlarida har qanday insonga xos eng ulug‘ fazilatlarni, yaxshi so‘zni yuksak pardada tarannum etadi. Shoir ta’biricha, inson yaxshi so‘z so‘zlashi lozim va agar bilmasa, jim o‘tirgani afzal. Do‘stning yaxshi so‘zi haqida: “Yaxshi do‘st bir so‘z desa, jon kabi aziz bo‘lar”, deydi shoir. “Aqling bo‘lsa, yaxshilarga hamdam bo‘l”. Juda zarur o‘git bu. Yaxshi inson, yaxshi do‘st, yaxshi qo‘shni, ya’ni bunday odamlarning niyati yaxshilik bo‘ladi va “ko‘nglida gina oz bo‘ladi”. Saxovatpesha, mardona qalb egalari hamisha hurmat-izzatga munosib ekanini qayta va qayta uqtiradi shoir. Uning fikricha, inson o‘ziga, axloqiga, ruhiy borlig‘iga e’tiborli va o‘z aytar so‘ziga ehtiyot bo‘lmog‘i lozim.

Maxtumquli – orif shoir. O‘qigan kitoblarini, she’rlarida tilga olingan Sharq allomalarining kimligini yaxshi tanib olish uchun ham juda katta bilim zaxirasi kerak bo‘ladi. “Orif bo‘lsang, so‘z ma’nosin ocharsan”. Johillik ziddi bo‘lgan oriflik – ulug‘ martaba. Chinakam ilm-ma’rifat ahli – oriflargina shoir so‘zining ma’nosini anglaydi.

Alisher Navoiyni o‘ziga ustoz bilgan Maxtumquli badiiy so‘zning qudrati har qanday qilichdan keskir ekanini bildi. Yaxshi so‘z qadriga yetadigan dunyoning barcha hududlaridagi she’riyat muxlislari, jumladan, O‘zbekiston xalqi ham Maxtumqulini xuddi o‘z milliy shoiridek ardoqlaydi. Shoir o‘zining bir she’rida “so‘z odamiman”, deb ta’riflagan edi. Maxtumqulidek bashariyat qalbidan chuqur joy olgan ulug‘ shoir, ya’ni buyuk “so‘z odami”ning uch yuz yoshi – tavallud to‘yi barchaga muborak bo‘lsin.

Bahodir KARIMOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

KITOB O‘QIGAN “KOBALT” MINADI

Boshlanishi 1-sahifada.

Aslida, barcha zamonlar ilm-fanida Uyg‘onish davrida yashagan olimlar va ularning bashariyatga manfaatli, umrboqiy kitoblari asosiy belgilovchi omil bo‘lgani aniq. Shunga ko‘ra, bugun kitob o‘qiyotgan yoshlardan umid katta. Ularda shijoat bor, ular orzular ummonida suzadi. Ular ulug‘ niyatlarini qalbiga joylab, ulkan yo‘lga chiqqan yo‘lovchiga o‘xshaydi. “Yosh kitobxon” tanlovi yoshlarning hayot yo‘lidagi oydin bir bekatdir.

Ma’lumki, bu tanlov O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tomonidan uch yosh toifasida: 10-14 yoshlilar; 15-19 yoshlilar; 20-30 yoshlilar o‘rtasida quyidan boshlab respublika bosqichiga qadar tashkil etiladi. Tanlov nizomi va shartlari yildan yilga takomillashib bormoqda.

Bir necha yil yosh kitobxonlarning og‘zaki nutqiga e’tibor berilgan bo‘lsa, ikki yildan buyon ularning o‘z fikrlarini yozma ravishda ifoda etishlari ham taqqoslanmoqda.

Bugungi yosh kitobxon o‘zi o‘qiyotgan asarlar va ularni yozgan adiblar to‘g‘risida mulohaza qilar ekan, kitoblarning ma’naviy-ma’rifiy qimmatiga, umrboqiylik darajasiga, hayotiylik rutbasiga, albatta, diqqat qaratishlari lozim.

Muhim bir gapni aytishni istardim. Kitobxonlik bahsida tanish-bilish, birovlarni o‘rtaga solib sarson-sargardon qilish, qo‘ng‘iroqbozlik ish bermaydi. Chunki ma’naviyat bahslari qo‘g‘irchoqbozning o‘yini emas. Aslida, ko‘p tanlovlarda urfga aylangan bunday noxush hollarni esga olishdan odam uyaladi. “Yosh kitobxon” – bu o‘ta original, haqqoniy va fenomenal hodisa. Bir misol keltiraman. Bilimdonlar o‘rtasida o‘zaro zimdan kurash davom etayotgan palla. Qaysidir viloyatdan bir qizcha o‘rtaga chiqdi. Uch-to‘rtta savollarning barchasiga bergan javobi bir xil, bir xil, bir xil... O‘qimagandan keyin kitobdagi fakt-dalillar haqida so‘zlay olmadi, mum qotdi. “Bilimdon”ning bilmasvoyligi bilindi. Hamma sezdi. Bilmaydigan biladiganlar orasiga adashib tushib qolgani ko‘rindi. Agar anglasa, hayolanib xayollansa, bu mulzamlik sabog‘i bunday ishtirokchi uchun bir umrga yetadi. Boshqa sohalarda, turli musobaqalarda tanish-bilish, birovga orqayinlik yordam berishi mumkin. Ammo “Yosh kitobxon” – millionlab odamlar ko‘zi oldida bir necha daqiqalar orasida eng kerakli, eng muhim fikrlarni o‘rinli, mantiqli, go‘zal adabiy tilda bayon qilishga qaratilgan, yoshlarning o‘ziga xos intellektual salohiyatini, eslab qolish qobiliyatini, muomala madaniyati kabi ma’naviy olamining olmos qirralarini elakdan o‘tkazadigan bebaho bir tanlov.

O‘quvchi kitobdan farosat sabog‘ini ham olmog‘i lozim. Yaqinda yoshgina bir ishtirokchi kelib, men bilan ko‘rishish uchun qo‘l cho‘zdi va: “Meni tanidingizmi?” dedi jinday havolanib. Savolidan xulosa qildim: farosat tarbiyasi ham muhim. Dunyo ahli orasida yuzlab, minglab kitoblarni o‘qib uqmaganlar, hayot tarziga, axloqiga, vijdoniga, iymoniga tatbiq etmaganlar borligidan ko‘z yumish – haqiqat yuziga teskari boqishdir.



“Yosh kitobxon” tanlovida ishtirokchilardan ko‘ra ularning ota-onalari, bobo, momolari ko‘pincha bezovta bo‘ladi. Tanlov shartlari, nizomlaridan norizo bo‘lgan hollari kuzatiladi. Bunday vaziyatlarda g‘olibni tabriklash, inson o‘z baloyi nafsini jilovlashi foydali bo‘ladi.

Sirdaryodan bir yigit keldi. Oxirgi o‘rinni oldi. Ammo mamnun, kayfiyati baland. Do‘stlarini tabriklagan, manzillarini almashgan. Oradan to‘rt yil o‘tib yana “Yosh kitobxon” minbarida paydo bo‘ldi va unga omad kulib boqdi. Mashina egasi bo‘ldi.

Bobur hazratlarining bir ruboiysidagi misralarning o‘rnini almashtirgani uchun Qoraqalpog‘istondan kelgan qiz mashinasiz qoldi. Yig‘ladi, xafa bo‘ldi. Ammo dag‘dag‘a qilmadi. Uning ma’naviyati balandligi, kitob o‘qigani sezildi. Keyingi yillardagi tanlovda shu qiz ham yutuqqa erishdi. Demoqchimanki, tanlov har yili qizg‘in va kutilmagan voqealarga boy bo‘ladi.

Nazarimda, bu tanlovda qatnashadiganlar soni yildan yilga ortib borgani holda, qatnashchilarning ilmiy-adabiy salohiyati ham nisbatan yuksalib borayotgani sezildi. Demak, insonlarning ong-u shuuri o‘zaro o‘xshash va farqli, ularning tushunish va tushuntirish qobiliyatlari ham turlicha. Demak, bu o‘rinda tanlov ishtirokchilari orasida eng qobiliyatlisi, ayni damda, manglayiga saodatli imzo qo‘yilgan ishtirokchi yulduzdek charaqlab ko‘rinadi. Eng muhimi, “Yosh kitobxon”da mag‘lublar bo‘lmaydi. Unda qatnashgan yoshlar o‘z umriga yetadigan, hayot yo‘llarida foyda beradigan bebaho ma’naviy boylik egasi bo‘ladilar.

Bu yil tanlov yetti yoshga to‘ldi, yoshi ulg‘aydi. Respublika Prezidenti sovg‘asi ham kattalashdi. G‘oliblarga “Spark” o‘rniga “Kobalt” sovg‘a qilindi.

Kitobxonlik tanlovlari yoshlarning shaxsiyatini, fikrini, ruhiyatini tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Yutgan odam hamisha mamnun. Yutqazganlar gohida ayb, bahona va aybdorni izlab qoladi. Bu tanlovda ko‘pincha yoshlar aybni birovdan emas, o‘zlaridan izlashdi. Gohida yonlaridagi kimsalarning qutqulariga uchib, jahllangan hollar ham kuzatildi. Ammo ularning jahl otini o‘qigan kitoblarining fayzi hamisha jilovlab turadi. Kitob shunday chin do‘stdir, kitob shunday nosih, maslahatgo‘ydir. Birovlar gijgijlaganida kitobdan bunyod bo‘lgan ichkaridan adolat, vijdon, iymon ovozi keladi va yoshlar o‘zlaridan ketmaydi, o‘zlariga keladi.

Yillar sinovida bu tanlov toblandi. Odamlarning chuqur ishonch va hurmatini qozondi. Olis cho‘l tumanidan kelib qatnashib, mashina yutgan qizning ota-onasidan qo‘shnilar “kim bilan gaplashgani” va “qancha bergani”ni so‘rashibdi. Ota-onaning o‘zi nochor bo‘lsa, ijarada o‘tirgan bo‘lsa, qanday qilib birov bilan “gaplashadi”? Yana bir qishloqda turadigan yigit mashina egasi bo‘ldi. Uyidan qo‘shnilari telefon qilishdi. Ular uy atrofini orastalash, ta’mirlash, ko‘chalarni asfaltlashdek ulkan bir hasharga bosh qo‘shishdi. Bunga, nazarimda, viloyat hokimi qiziqdi. Bir kitob o‘qigan yigit sharofati bilan qishloq obod bo‘ldi.

Bir jurnalist bu tanlovga meni nima bog‘lab turganini so‘radi. Biroz noo‘rin tushundimmi, baharhol qizishdim. Yuragimni to‘kib soldim. Ota-onam, ustozlarim, haqiqatdan, to‘g‘rilikdan dars berishganini aytdim. Halol luqmaning barakasidan so‘zladim.

Aslida, mening bu maydonga kitobga qiziqishim, yoshlarning billur, chinni ko‘nglini turli qabohatlar sindirishidan qo‘riqlash mas’uliyati bog‘lab turadi. Adolat tarozisining bir pallasida turib, ularni avaylash meni shu maydonga yetaklab keladi. Murg‘ak tasavvurli bolajonlar bu olamda adolat, haqiqat borligini, o‘zlarining ko‘ngillariga mos, ularning gapini, dardini, yuragini anglaydigan odamlar ko‘pligini bilishlari lozim. Shunda jamiyat obod va go‘zal bo‘ladi. Shunda ularning qalbidan joy olgan ko‘chatlari parvarish topadi va taraqqiyotning muhtasham chinorlariga aylanadi.

Yaxshi kitob – ko‘ngil chirog‘i. Yaxshi kitoblar vositasida buxoriylar, termiziylar, samarqandiylar, xorazmiylar, farg‘oniylar, shoshiylar, nasafiylar o‘laroq dunyoga dong taratgan ajdodlarga munosib avlod tarbiyalanadi. Millat dovrug‘ini kitoblar olamga yoyadi.

Darvoqe, gapim tuganchida yana bir-ikki taklif aytmoqchi edim.

Birinchidan, hozirga qadar “Yosh kitobxon” tanlovining respublika bosqichida qatnashgan uch yuzga yaqin iste’dod egalari e’tibordan chetda qolib ketmasligi kerak. Ularni yilda kamida ikki-uch marta poytaxtda jamlab, respublikaning taniqli olimlari, ijodkorlari, madaniyat va san’at arboblarining mahorat saboqlarini tashkil etish o‘rinli bo‘lardi.

Ikkinchidan, tanlov maqomini xalqaro miqyosga olib chiqish payti ham keldi. Qo‘shni qardosh respublikalardagi yosh kitobxonlar ham o‘zlarini tengqurlari qatorida ko‘rishlari har jihatdan muhim va foydali bo‘lar edi.

B.NURMUHAMMAD



MA’RIFATGA YURAGIDAN YO‘L OCHGANLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Mazkur “mini-maktab” uzoq o‘tmishda emas, 2017-yilda foydalanishga topshirilgan. Sinfxonalari yetishmasligi bois oxirgi dars soatlari qisqartirilib, mashg‘ulotlar uch smenada olib borilar edi. 2017-yilgacha shu bino ham yo‘q, o‘quvchilar hovlilarda, dala shiyponida o‘qigan kunlari bo‘ldi. Gap 18-maktabga qarashli hududning qamrov jihatidan kattaligida edi, Salom bobo va Boboqul Jumayev nomli ko‘chalardangina iborat qishloqchadagi o‘quvchilar yetti kilometr olisdan maktabga qatnardi. Biz aytayotgan “to‘rt xonali maktab” binosi aholiga qulaylik yaratgan o‘shanda. Axir qishli-qirovli kunlarda uzoq masofani piyoda bosib o‘qishga qatnashning o‘zi bo‘ladimi? Aholiga qulay hududda maktabning filialini ochish esa favqulodda ko‘rilgan chora edi.

Xullas, o‘quvchilarning ta’lim olishi bir qadar yo‘lga qo‘yildi, lekin muammo bor edi. Dars soatlari asosiy maktab shart-sharoitidan kelib chiqqan holda taqsimlanar, filialda bitta fandan bir necha o‘qituvchi almashib saboq berardi. Bundan tashqari, bu yerda bilim olayotgan o‘quvchilar fan olimpiadalariga ham umumta’lim maktabidan borgandek qatnasha olmasdi.

Har ishning o‘z vaqti soati bor. 2023-yilda “Obod qishloq” dasturiga oid masalalar bilan



“Oydin” mahallasiga kelgan mutasaddilar orasida “Sulton Tex Group” kompaniyasi rahbari Nurbek Ergashev ham bor edi. Uning e’tibori kutilmaganda ana shu 18-umumta’lim maktabining “yetimcha” filialiga tushdi. Tadbirkor tezlik bilan bir qarorga keldi. “Maktabcha”ni



maktab ko‘rinishiga keltirish harakatlarini boshlab yubordi. Aholi ehtiyojidan kelib chiqib, 160 o‘rinli yangi maktab binosini qurish uchun yuz nafardan ziyod ishchi jalb etildi. Ish ikki smenada tashkillashtirildi. Ko‘ngilli o‘qituvchilar jamoasining yordamidan ham foydalanilmadi.

– Men rahbar bo‘lganim bilan, bu maktabga oid muammolarda kalavaning uchini topolmasdim, – deydi direktor Oybek Abrayev. – O‘zim maktab qurolmasam... Tadbirkor Nurbek akaning e’tibori tushishi omadimiz kelgani edi aslida. U kishi jamoani biror ishga aralashtirmadi. Ellik sakkiz kunda yangi maktabni qurib bitkazdi.

Darhaqiqat, “Sulton Tex Group” kompaniyasi rahbari qurilishni shaxsan o‘zi nazorat qildi. Ishni jadal va sifatli tashkil etdi. Ilm maskanini to‘liq jihozladi ham. Zamonaviy partalar, o‘n yettita so‘nggi rusumdagi kompyuter va bitta monitor, ikki mingta badiiy kitob bilan ta’minladi. Ayniqsa, isitish tizimiga alohida e’tibor qaratdi. Oybek Abrayevning aytishicha, hatto maktab ochilishi oldidan uyushtirilgan hasharda, katta tadbirkor bo‘lishiga qaramay, yeng shimarib ishladi. Parta tashish kerak bo‘lsa, parta tashidi, deraza oynalarini artayotganlarga



qo‘shilib oyna tozaladi. Bu nishonliklar orasida uning obro‘siga obro‘ qo‘shdi, aholi Nurbek Ergashevning saxiyligini, kamtarligini olqishladi. Yangi maktabning ochilish marosimiga quruvchilar va ishchilar taklif etilib, tadbirkor tomonidan har biriga xizmat haqidan tashqari, ezgulik yo‘lidagi mehnati uchun besh million so‘mdan berildi.

Ha, aytgancha, yangi maktab butkul yangilandi. 18-maktab tarkibidan chiqarilib, 44-sonli umumta’lim maktabiga aylantirildi. O‘ttiz nafar muallim darslarga doimiy mas’ul o‘qituvchilar sifatida biriktirildi. Birinchi marta bu mustaqil maktab fan olimpiadasining tuman bosqichiga o‘quvchilarni chiqardi. Bugun maktabda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori ham bor.

Har ishda bir hikmat bo‘ladi. Chekka hududdagi kichik maktabga katta tadbirkorning nazari bekorga tushmagandir. Kelajakda bu maktabdan uning o‘zidek ma’naviyat va ma’rifatga yuragidan yo‘l ochgan sarmoyadorlar yetishib chiqsa, ajabmas.

Ayni paytda maktabda qariyb 150 nafar o‘quvchi ta’lim olyapti. O‘n ikkita fan to‘garagi, to‘qqizta sport to‘garagi ishlab turibdi. Kutubxonadagi kitoblar soni ham besh mingtaga ko‘paydi. Darslar avvalgidek, ikki-uch emas, bir smenada tashkil etildi. O‘quvchilar bo‘sh vaqtlarida o‘zlari qiziqqan to‘garak yoki qo‘shimcha mashg‘ulotlarda bilimlarini mustahkamlayapti.

Maktab rahbari ham ba’zan tanish-bilishlarini ishga soldi, o‘z yonidan xarajat qilib, maktabni ko‘kalamzorlashtirishga bel bog‘ladi: uch yuz tup archa, besh yuz tup mevali daraxt ekdi. Arteziandan quvur torttirib, ekin-tikin uchun suv chiqardi. Qarshidagi gul bozorini oralab, maktab atrofini gulzorga aylantirishga kirishdi. Tadbirkorning o‘tgan-qaytganda maktabdan xabar olishi unda mas’uliyatni kuchaytirdi.

– O‘zimiz ma’rifat sohasida ishlasak ham, bu sohaga mehrni Nurbek Ergashevdan o‘rganyapmiz. U kishining fidoyiligiga havas qildik, – deydi direktor. – Bir necha marta maktabimiz uchun qancha mablag‘ sarflaganini so‘rasam, har gal gapni boshqa mavzuga burib yuboradi. O‘zimning xomcho‘tim bo‘yicha, 6-8 milliard so‘m xarajat qilgandir. Ba’zan bitta kitob sotib olishga o‘ylanib qolamiz. Nurbek akaday bag‘rikeng odamlar esa millat uchun maktab quryapti, deyman o‘zimga o‘zim...

Ha, yuqorida o‘qiganlaringiz rost gaplar. Biz yashayotgan zamonda jadidlik harakati davom etayotgani ham rost. Ular maktablar barpo etyapti, kutubxonalar quryapti. Ming-minglab kitoblarni hadya qilyapti. Tolibi ilmlarni qo‘llayapti, dunyo tamadduniga hissa qo‘shyapti. Faqat buni ko‘rish uchun atrofga ko‘ngil ko‘zi bilan qarash kerak. Qachonki atrofga ko‘ngil ko‘zi bilan boqsak, yaxshilar va yaxshiliklarni ko‘rgaymiz.

Muhayyo PIRNAFASOVA

ILLAT

LA’NATGA QOLGAN MAYMUN

Dunyoda nomini aytishga odam hayiqadigan kasalliklar bor. OITS va OIVga chalingan bemorlar dardini yashirib, oramizda jimgina yurishibdi. Bu kasallikni shunchaki isnod deb bilishadi. Chunki bu, odamlar nazdida, egri yo‘lga kirganlar yoki giyohvandlar kasalligi hisoblanadi. Darhaqiqat, savol tug‘iladi: OITS kasallikmi yo isnod? Bu kasallik chindan ham faqat noto‘g‘ri jinsiy aloqadan paydo bo‘ladimi? Tibbiyot tizimida bu kabi kasalliklarni yuqtirishning yuz foiz oldi olinganmi?

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyoda OIV kasalligiga chalinganlarning soni jami 39 million kishini tashkil etgan. Shundan 1,7 million nafari bolalardir. Ularning orasida chaqaloqlardan tortib, o‘smirlargacha bor. O‘zbekistonda ularning soni 48 mingdan oshgan, kasal bolalar esa 600 nafarga yaqinni tashkil etadi.

Xo‘sh, mamlakatimizda OITS va OIV kasalligi bilan og‘riyotganlar shuncha ekan, ularning davolanishida, odamlar orasida yurishida, ijtimoiy xizmatlardan foydalanishida, umumiy jamoat joylarida muammolar tug‘ilmayaptimi? Tug‘ilyapti.

Biz Yevropada emas, O‘zbekistonda yashaymiz. Hali-hanuz shifokor yoki tibbiyot xodimlarining e’tiborsizligi va loqaydligi tufayli kasallik yuqtirib olganlarni ham yengiltaklar safiga qo‘shib gapiramiz. Holbuki, chaqaloqlar, go‘dak, o‘smirlar bu kasallikni bolaligida ko‘taradi, katta bo‘lganda-chi, uni faqat noto‘g‘ri jinsiy yo‘l orqali yuqtirgan, degan shubha bilan ta’qib qilmaymizmi?..

Har yili 1-dekabr – Butunjahon OITSga qarshi kurash kuni munosabati bilan sinfxonalarda ma’ruzalar o‘qiladi. Ularda kamida kasallikning beshafqat oqibatlari haqida gap-so‘z yuritiladi. Asosan, noto‘g‘ri jinsiy aloqa bu kasal yuqishiga bosh omil ekani ta’kidlanadi, e’tiborsizlik va loqaydlikdan yuqtirilganini esa aytishmaydi. Qolaversa, o‘sha sinfxonalarda OIVga chalingan bolalar borligi nazarda tutilmaydi. Axir, kimlarningdir xatosi uchun bolalar umri bilan tovon to‘layotganini nega e’tibordan soqit qilamiz? Nega bu kasallik haqida ochiq-oshkora gapirmaymiz?

Odamlarning OIV bilan kasallanganligi to‘g‘risida dastlabki tasdiqlangan fakt Kongo Demokratik Respublikasi poytaxti Kinshasada topilgan. Virus 1959-yilda omon qolgan to‘qima namunalarida aniqlangan. Shuningdek, Afrikaning 15 foiz aholisi OIV va OITS bilan og‘riyotgani ham ma’lum. Butun dunyoda OIV bilan zararlanganlarning 67 foizi Afrikaning Sahroi Kabirida istiqomat qiladi.

O‘zbekistonda esa OIV bilan og‘rigan ilk bemor 1989-yilda aniqlangani



aytiladi. Angoladan kelgan talaba bu kasallikni olib kelgan. Bundan yuz yil muqaddam Afrikada shimpanze maymunidan kasallikni yuqtirib olgan ilk bemorni, qon quyish uskunalari va qonlarni yaxshi tekshirmayotgan tibbiyot xodimlarini qoralashdan va la’natlashdan oldin bu kasallik tug‘dirayotgan xavf, uning yuqish omillari, ushbu yo‘nalishda bemorlarni davolash yoki umrini uzaytirish yo‘lida olib borilayotgan harakatlarni jiddiy tartibga solish lozim.

Respublika OITSga qarshi kurash markazi qoshidagi maxsuslashtirilgan shifoxona shifokori Nafisa Rahimova biz bilan suhbatda bu haqda shunday dedi:

– O‘zbekistonda OIV infeksiyasining aniqlanish darajasi yildan-yilga kamayib borayotgan bo‘lsa-da, dunyodagi ayrim davlatlarda bu ko‘rsatkich hamon yuqoriligicha qolmoqda. Hozirgi kunda Yer yuzida OIV infeksiyasi qayd etilmagan hudud qolmagani ma’lum. Ayanchlisi shundaki, JSST ma’lumotlarida dunyo bo‘yicha har daqiqada 7 nafar odam OIVni yuqtirib oladi va 3 nafar odam OITS oqibatida vafot etadi deb ko‘rsatiladi.

Ha, OIV surunkali kasallik, uni butunlay davolash imkoni hali topilgani yo‘q. Shu sababli bemorlar umri davomida tibbiy yordamga muhtoj bo‘ladilar. Shuningdek, OITS yoki OIVga chalingan bemor shu millatning bir fuqarosi o‘laroq oramizda bemalol yura oladimi? Ularning huquqlari himoya qilinadimi? Bu haqda suhbatdoshimiz shunday dedi:

– Qonun hujjatlarida OIVni yuqtirib olganlarni va ularning oila a’zolarini ijtimoiy muhofaza qilishning chora-tadbirlari ham belgilangan.

OIVni yuqtirib olganlarda OIV infeksiyasi mavjudligini asos qilib, ular bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga, ularni ishga qabul qilishni rad etishga (bundan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan ro‘yxatda nazarda tutilgan ayrim kasbiy faoliyat turlari mustasno), ta’lim muassasalariga (bundan ta’lim muassasalarining qonun hujjatlarida belgilangan ayrim turlari mustasno) va tibbiy yordam ko‘rsatuvchi muassasalarga qabul qilishni rad etishga, shuningdek, ularning boshqa huquq va qonuniy manfaatlarini cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tabiiyki, jarrohlik amaliyotida yoki undan so‘ng bemorlarga qon quyiladi, quyilayotgan qon qay darajada ishonarli? Axir, bir necha yil OITS qonda yashirin davrni yashashini inobatga olsak, bu kasallik bolalar organizmiga bildirmaygina kirib olishi mumkin-ku! Tibbiy uskunalar buni o‘z vaqtida aniqlay oladimi? Bu haqda Toshkent shahar OITSga qarshi kurash markazi bosh shifokori Vinera Barotova quyidagilarni gapirib berdi:

– Oldinlari bu kasallik yomon yo‘lda yuradigan odamlarga xos, deb hisoblangan. Keyin qaralsa, hatto yo‘ldoshi filtr vazifasini o‘tovchi homilador ayollarda ham kasallik onadan bolaga yuqqan. Shuningdek, OIV aniqlanmagan onalarning farzandlarida tibbiyot maskanlaridan OIV yuqishi bolalarda 2003-yildan boshlab aniqlana boshlagan. Davlat bosh sanitariya vrachining 2004-yil 22-dekabrdagi 42-sonli qaroriga ko‘ra, qon quyish markazlarida donorlardan olingan qonlar tekshirilmaguncha qon quyishga berilmaydi. Olingan qon OIV infeksiyasi, virusli gepatit V va Sga, brusellyoz, zaxm kabi qon orqali yuqishi mumkin bo‘lgan kasalliklar bo‘yicha tekshirilib, yaroqliligi aniqlangach, foydalanishga ruxsat beriladi.

Bir paytlar gepatit Sning davosi yo‘q, deb qaralardi. Bugun uning davosi topildi. Hozirgi kunda dunyoning 5 ta mamlakatida, jumladan, Birlashgan Arab Amirliklarida ham OITSga davo topish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilyapti. Umid qilamizki, bu, albatta, o‘z natijasini beradi.

OIVning onadan bolaga yuqishi xavfi 2011-yildan 2023-yilgacha uch martaga qisqardi. 2023-yilda butun dunyo bo‘ylab OIV bilan kasallangan taxminan 1,3 million homilador ayolning 85 foiziga OIV bolalariga yuqishining oldini olish uchun antiretrovirus preparatlari berilgan.

So‘nggi paytlarda OITSning davosi topilishi mumkinligi haqida xabarlar tarqaldi. Aslida bu xabarlar ertakka o‘xshaydi. Timoti Braunning hikoyasi, ayniqsa, quvonchli: u o‘n yildan ortiq vaqt davomida OIV bilan kasallangan. Shifokorlar unga suyak iligi transplantatsiyasini o‘tkazib, uning o‘rnini OITSga qarshi kurashishga imkon beradigan mutatsiyaga ega donor bilan almashtirdilar. Braun bugungi kunda suyak iligi ko‘chirib o‘tkazish orqali OIVdan tuzalgan birinchi bemordir. Uning sog‘lig‘i tahdiddan xoli, biroq afsuski, suyak iligini almashtirish jarayoni juda xavfli, bunda o‘lim xavfi 40 foiz. Kasallikni erta aniqlash OIV infeksiyasi bilan ham uzoq umr ko‘rishning omilidir.

Poytaxtimizning Chilonzor, Yunusobod va Shayxontohur tumanlarida bu kasallikka qarshi muolaja qilinadigan shifoxona va markazlar mavjud. Bemorlar esa aynan shu markazlarga qatnab, antiretrovirusga qarshi vositalarni olishadi.

Bugun OITS markazlariga onalari bilan birga qatnab, muolaja olayotgan bolalar ertaga voyaga yetishadi. OIV bilan tili chiqqan, tishi chiqqan bolalar, o‘zlarini majruh kelajak kutayotganini, ehtimol, anglar, ehtimol yo‘q. Ehtimol, OITSga shifo topadigan ilk tadqiqotchi ularning orasidadir. OIVga chalingan farzandlarini bir siqimgina bo‘lib katta qilayotgan ota-onalar esa, balki bolalariga qo‘shilib, Afrikadagi o‘sha qop-qora maymunni la’natlayotgandir. Musulmon olamida Taqdir Allohning o‘lchovi ekanligi aytiladi. Zotan, taqdir – Allohning siridir.

Go‘zal BEGIM

BU KITOBNI O‘QIDINGIZMI?



AFSONA EMAS, SABOQ

Tarix afsona emas, unda millatning asrlar qa’ridagi kechmishi, moziy sabog‘i mujassam. “Tarixiy xotira beqiyos” nomli kitobni mutolaa qilib, mustabid tuzum davrida xalqimiz boshiga tushgan og‘ir kunlardan xabardor bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan chop etilgan ushbu kitobda qatag‘on yillarida nohaq sudlangan, o‘lim jazosiga mahkum qilingan qirq nafar prokuratura xodimi haqida ma’lumotlar berilgan. Ularning hayot yo‘llari, faoliyati arxivlarda saqlanayotgan manbalar, tegishli hujjatlar orqali o‘rganilgan. Kitobni tayyorlashda nafaqat arxivlardan, balki qatag‘on qilingan prokuratura xodimlarining avlodlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlardan ham foydalanilgan.

Kitobni mutolaa qilar ekanmiz, qatag‘on qurbonlarining aksariyati xorijda tahsil olgan, xalq orasida hurmat-e’tibor qozongan, yuksak bilim va iqtidorga ega insonlar ekaniga guvoh bo‘lamiz. Millat oydinlari jamiyatni tanazzulga yetaklovchi illatlar, taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotgan muammolarga e’tibor qaratgan. Bu muammolar orasida ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ularning ta’lim olishi, huquqlari, qozilik sudlarining noto‘g‘riligi, jinoyat kodeksining qaytadan ko‘rib chiqilishi kabi masalalar bor edi.

Kitobda yozilishicha, prokuratura xodimlari o‘zbek jadid ma’rifatparvarlari bilan tanish, maslakdosh bo‘lishgan. Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqov va Mahmudxo‘ja Behbudiy yaqin do‘st bo‘lishgan, “Oyina” jurnalida birga faoliyat yuritgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Cho‘lpon Qo‘qonboyning xonadonida bir muddat yashagan. Qo‘qonboy Abduxoliqov adabiyot ixlosmandlari orasida yozuvchi, tarjimon va pedagog sifatida ham tanilgan. Soha vakillari qatorida ma’rifatparvar jadidlar ham ko‘pchilikni tashkil etgan. Ular ham mudroq qalbni uyg‘otuvchi yagona kuch ilm-ma’rifatda, deb bilishgan. Masalan, Qoraboy Ermonov qoraqalpoq pedagoglari bilan hamkorlikda ko‘plab o‘quv darsliklarini tayyorlagan. Qurbonlar safida o‘zbekning iste’dodli farzandi, zamonaviy huquqshunoslik maktabiga asos solgan Muhammadjon Mo‘minov ham bo‘lgan. Uning tashabbus va shijoati bilan qisqa vaqt ichida ko‘plab yuridik lug‘atlar, darslik kitoblar chop etilgan.

Kitobda keltirilishicha, asos-isbotsiz chiqarilgan sud hukmlari ham talaygina ekan. Akademik Naim Karimov hujjatlarni o‘rganish jarayonini shunday ta’riflaydi: “Biz tishimizni tishimizga qo‘yib, ko‘z yoshlarimizni bir-birimizdan yashirib, jinoiy ishlar yozilgan hujjatlar ustida ishlaganmiz... Tergov matnlarini o‘qiganimizda, ularga a’zosi bo‘lmagan aksilinqilobiy tashkilotlarga a’zo bo‘lgansan, qo‘l qo‘y, degan joylarda ularning ko‘z yoshlaridan dog‘lar qolgani ko‘rinib turardi”.

Mazkur kitobdan o‘rin olgan qatag‘on qurbonlarining ayanchli taqdiri bilan yaqindan tanishar ekanmiz, qalbimiz iztirob chekadi. Taskin beradigan yagona narsa shuki, ulardan yaxshi nom, Vatan tarixida o‘chmas iz qoldi. Boshqa soha vakillari orasida ham qatag‘on qurbonlarining soni bundan kam bo‘lmasa kerak. Nazarimizda, bu kabi kitoblar ham savob, ham ibratli xotira. Muhimi, tarix qatidagi xotiralar bizni bugungi tinch va xotirjam kunlarning qadriga yetishga undaydi.

Muyassar IBROHIMOVA

IFTIXOR

“ENDI INSON QADRI HAM AVVALGILARGA O‘XSHAMAS”

Prezidentimiz joriy yilning 15-16-fevral kunlari Andijon viloyatiga tashrifi davomida o‘tkazgan yig‘ilishda o‘zbek qo‘shiqchilik san’ati rivojida o‘chmas iz qoldirgan mashhur hofiz Sherali Jo‘rayev nomini barchamiz hurmat bilan esga olishimiz lozimligini ta’kidladi. Andijon shahridagi San’at maktabiga O‘zbekiston va Tojikiston xalq artisti, Navoiy nomidagi davlat mukofoti sovrindori Sherali Jo‘rayev nomini berishni taklif qildi. “Mazkur maktab Musiqa va san’at kollejiga aylantiriladi, grant asosida zamonaviy kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Yangi o‘quv binosi, turar-joy barpo etiladi, zarur infratuzilma yaratiladi. U yerda Sherali Jo‘rayev byusti o‘rnatiladi”, dedi Prezidentimiz.

Ushbu xayrli ish nafaqat Andijon viloyati yoshlari, balki butun mamlakatimiz yoshlari qalbida san’atga qiziqishni, Vatanga mehr-muhabbat tuyg‘ularini kuchaytiradi, halol, fidokorona mehnat, albatta, qadrlanishiga ishonchlarini mustahkamlaydi.



Sherali Jo‘rayev ashulalarini qachon eshita boshlaganim esimda yo‘q. Shunisi aniqki, uning dastlabki ashulalarini tinglaganman. Chunki hofiz bilan tengdosh edik. Ochig‘i, avvaliga u qadar ahamiyat bermaganman. U paytlarda ko‘pchilik, asosan, Faxriddin Umarov, Tavakkal Qodirov, Komiljon Otaniyozov kabi xonandalar muxlisi edi. Keyinchalik Sherali ommalasha boshladi. Ayniqsa, Abdulla Oripovning “Birinchi muhabbatim” she’rini ashula qilganidan keyin uning muxlislari ko‘payib ketdi. Tabiiyki, o‘sha ko‘p sonli muxlislar qatorida kamina ham bor edi.

Inson yoshi o‘tgan sari bosib o‘tgan hayot yo‘liga bot-bot nazar tashlar, qilgan ishlarini xayolan tahlil qilar ekan. Kunlarning birida xorijiy mamlakatlarga safarlarim haqida o‘yga toldim. Qaysi davlatga, dunyoning qaysi mashhur shahriga bormayin, uch-to‘rt kundan so‘ng Vatanimizni, oilamni sog‘ina boshlayman. Dastlabki yillarda xizmat safarim tugashini kutishdan o‘zga chora yo‘q edi. Zamonaviy mobil telefonlar chiqqanidan keyin o‘zimga o‘zim taskin o‘ylab topdim. Telefonimga o‘zim yoqtirgan xonandalarning ashulalarini yozib olib, ularni eshitaman. Shular orasida eng ko‘p eshitganim Sherali Jo‘rayevning Oybek domla she’ri bilan aytgan “O‘zbekiston” ashulasi bo‘lsa kerak. Ko‘ngilda yurt sog‘inchi paydo bo‘lishi hamono imkon topib shu ashulani tinglayman:

Bir o‘lkaki, sal ko‘rmasa quyosh sog‘inar,
Bir o‘lkaki, qishlarida shivirlar bahor.

Naqadar go‘zal, teran ma’no-mazmunli satrlar! Oddiy so‘zlar bilan jonajon yurtimizga berilgan betakror ta’rif va tavsif! Hofiz shunga mos ohang topganki, eshitgan sari kishi yuragini zir-qiratadi, butun badani jimirlab ketadi odamning. Ashulaning menga eng yoqqan joylari quyidagi misralar:

Quyosh, nuring sochaver mo‘l-mo‘l,
Bahor, ketma bizning boshlardan.
Yurtimizda qolmasin dasht-cho‘l,
Chaman unsin hatto toshlardan.

Hofiz ushbu satrlarni to‘rt-besh marta takrorlaydi. Eng hayratlanarlisi, har safar boshqacha ohangda, boshqacha jiloda, boshqacha tempda kuylaydi. Ularning har birida o‘ziga xos faxr-iftixor bor, dard bor, sog‘inch bor, qo‘msash, iztirob bor. Baland ovozda kuylaganda quyoshga iltijoni sezaman, bosiq ovozda yalinish-yolvorish mujassam, boshqasida shu yurtdan faxrlanish, uning har qarich yeri gullab-yashnashini orzu qilish, hatto toshlaridan ham chaman unishini istash kabi ezgu niyat bo‘rtib turadi. Eshitganing sari shu zaminda dunyoga kelganingdan, shu Vatan farzandi ekaningdan faxrlanish, g‘ururlanish tuyg‘usi jo‘sh uradi. Vatandan uzoq-uzoqlarda yurganda bu ashulani tinglash zavqini so‘z bilan ta’riflash qiyin...

Sherali Jo‘rayevning har bir ashulasidan olam-olam mazmun topasiz. Biror ashula eshitsam, uni qaysidir rassomning kartinasiga yoki biron adibning she’r yoxud hikoyasiga qiyoslash, ularda o‘xshashlik bor-yo‘qligiga e’tibor qaratish odatim bor. Mashhur musavvir Akmal Nurning “Nigoh” nomli asari bor. Unda qiz yuzining yarmi ko‘rinadi. Ammo tomoshabin bunga e’tibor bermaydi, qizni to‘la ko‘radi. Yuzining yarmi ko‘ringan o‘sha qizga razm solib qarasangiz, ibosini, hayosini sezasiz.

Shu suratga termilib turibman-u qaydandir Sheralining “Qarashlarga” degan ashulasi qulog‘imga chalinyapti: “Shirin jonim fido bo‘lsin o‘shal bo‘ylab qarashlarga...” Vo ajabo, ikki buyuk ijodkor asarlari bir-birini to‘ldirmoqda go‘yo. Bu san’atkorlar mahoratining mevasi emasmi?! Tasanno!

* * *

Boshqalarni bilmadim, menda ba’zan shunday holat bo‘ladi: hech bir sababsiz kayfiyatim tushib ketadi. Shunday paytda mumtoz ashulalar jonimga oro kiradi. Xususan, “Cho‘li iroq” kuyi, uning xalq cholg‘ulari orkestri ijro etgan varianti juda xush yoqadi. Kuyni tinglab o‘tirar ekanman, xayol ko‘zlarim bilan ko‘p narsalarni, turli-tuman voqealarni ko‘raman. Bepoyon sahro, jaziramada holdan toygan tuyaning og‘ir-vazmin yurishi, tuya ustidagi sohibjamol va uni kuzatib borayotgan yigitning ko‘z yoshlarini aniq-tiniq tasavvur qilaman. Avvaliga ularga achinaman, battar ezilaman, hatto ko‘zimga yosh keladi. Sekin-asta ularning ahvoli bilan o‘zimni taqqoslayman. Va Yaratganga shukronalar aytib, o‘zimga kela boshlayman.

Shunday holat bir gal Samarqandda ro‘y berdi. Bunga ancha yillar bo‘ldi. Shahardan o‘zim tug‘ilib o‘sgan qishloqqa – Urgut tumanidagi Mingbuloq qishlog‘iga ketayotgan edik. Shom payti edi. Aslida kun botish arafasi menga yoqmaydi, ko‘pincha shunday paytda dilim g‘ash bo‘ladi. Hayot shomi ro‘y berayotganday tuyuladi. Shundanmi, erta tong, quyosh chiqishini kuzatish dilimni ravshan qiladi. Haydovchi magnitofon yoqdimi yoki kasseta qo‘ydimi – esimda yo‘q – ashula yangradi: “Qaro ko‘zim”. Ashula boshlanishi bilan haydovchi boshqa ashulaga o‘tkazdi. “Qaytar, – dedim. – Boyagi ashulani qo‘y!” “E, zerikarli”, dedi haydovchi. “Qo‘y, shuni”, dedim qat’iy. Qo‘ydi. E’tibor qilsam, Sherali. Ochig‘i, ungacha “Qaro ko‘zim”ni Sherali Jo‘rayev ijrosida eshitmagandim. Uning asosan zamonaviy ashulalarini bilardim. Haydovchi bilan uning yonida o‘tirgan yigit o‘zaro gapga tushdi. Sezib turibman, ular ashulani eshitishni istamayapti (yosh yigitlar-da, ularga mumtoz ashula yoqarmidi). “Jim, – dedim keskin. – Sizlardan iltimos, shu ashula tugaguncha miq etmanglar!”

Sherali mumtoz ashulani ham maromiga yetkazib kuylashiga o‘shanda birinchi marta guvoh bo‘ldim va qoyil qoldim. Ushbu mashhur ashulani bir necha xonandalar ijrosida eshitganman. Shulardan eng ma’qul bo‘lgani Yunus Rajabiy ijrosi edi. Esimda, Muqimiy nomidagi teatrda qanday-dir tadbir bo‘ldi. Shunda Yunus Rajabiy “Qaro ko‘zim”ni aytdi. O‘shandan keyin “Qaro ko‘zim”ni hech kim bu qadar ta’sirli ijro etolmasa kerak, degan fikrda yurardim. Sherali Jo‘rayevning “Qaro ko‘zim”ini tinglab, fikrim o‘zgardi. Har qanday mashhur ashulani har qaysi hofiz maromiga yetkazib kuylashi mumkin ekan, degan fikrga keldim. Albatta, har birining o‘z uslubi, o‘z yo‘li bor, birini biridan ustun yoki past qo‘yish kerak emas. Yunus Rajabiy ijrosi o‘ziga xos uslub bilan eng baland cho‘qqini zabt etgan. Bu – Yunus Rajabiy cho‘qqisi. Sherali Jo‘rayev mumtoz ashulalar, jumladan, “Qaro ko‘zim” ijrosida ham o‘zining cho‘qqisini kashf etdi. Bu hech kimnikiga o‘xshamagan, faqat uning o‘ziga, o‘zining ijro uslubiga xos cho‘qqi, ya’ni Sherali Jo‘rayev cho‘qqisi!

Sherali hofizning mumtoz shoirlarimiz g‘azallariga bastalagan kuylari va ijrosi naqadar ta’sirli, yurak-yuraklarga yetib borishini, hatto o‘zga millat vakillarini ham maftun etishini ko‘rsatuvchi bir misol keltirmoqchiman. Shoir Sa’dulla Hakim (Olloh rahmat qilsin) bilan 2007-yilda Xitoyda o‘tgan xalqaro konferensiyada qatnashdik. Anjuman Urumchi shahrida bo‘ldi. Keyin mamlakat poytaxti Pekinga olib borishdi. Pekinning diqqatga sazovor joylarini tomosha qildik. Bir necha rasmiy idoralarda, maktabda uchrashuvlar o‘tkazdik. Bir safar mikroavtobusda ketayotib, telefonimni yoqib, Sherali Jo‘rayevning Bobur g‘azali bilan aytiladigan “Bahor ayyomi” ashulasini qo‘ydim. Shoir ikkalamiz o‘zimizcha hofizga jo‘r bo‘lib, ashula ayta boshladik. Ashulaga berilib ketib, ovozimiz balandlab ketganini sezmay qolibmiz. Birdan avtobusda ketayotganimiz, yonimizda turli davlatlar vakillari o‘tirgani, ular bu ashulani tushunmasligi yodimizga tushib qoldi. Ularga xalaqit berayotganimizdan xijolat bo‘lib, telefonni o‘chirdim. Orqamizda o‘tirgan ayol, adashmasam, polshalik yoki ukrainalik edi, “Nega o‘chirdilaring, nimaga ashula aytmayapsizlar”, dedi. Biz ajablandik. “Boshqalarga xalaqit berdik”, dedik. “Hech kimga xalaqit berganingiz yo‘q, sizlar sezmadingiz, hamma miriqib eshitdi, agar malol kelganda, aytardi-da”, dedi. Bu gap bizni yanada hayratga soldi. “Bizdan boshqa hech kim tushunmaydi-ku bu ashula so‘zlarini”, dedik. “Musiqaga, ayniqsa, yaxshi musiqaga tarjimonning keragi yo‘q, hamma millat tushunaveradi. So‘zini tushunish shart emas. Qanday ajoyib ashula ekan, rohat qilib eshitayotgan edik. Bu sizlarning klassik ashulalaringizdan bo‘lsa kerak, shundaymi?” Biz ma’qulladik. “Qo‘ying, iltimos, oxirigacha eshitaylik”, dedi ayol. Ashulani boshidan qo‘ydik. Tugagach, Bobur haqida, Sherali Jo‘rayev to‘g‘risida muxtasar so‘zlab berdik. Bu Sherali Jo‘rayev hofizlik borasida zabt etgan ko‘z ilg‘amas cho‘qqining yana bir dalolati edi.

Hofiz haqida ko‘p ta’riflarni keltirish mumkin. Uning iste’dodi, kuylash mahorati, she’r tanlash qobiliyati va hokazo jihatlari xususida xo‘b aytilgan va yozilgan. Men uning bir jihatini alohida ta’kidlamoqchiman. Sherali jasoratli hofiz edi. Xususan, sobiq sovet tuzumi davridagi faoliyati, aytgan qo‘shiqlari buni tasdiqlaydi. Jumladan, Erkin Vohidovning “O‘zbegim” she’riga kuy bastalab, chiroyli kuyladi. El orasida mashhur bo‘lib ketdi. U zamonlarda “o‘zbegim” deb chiqish, baralla kuylash oson emasdi. Bugungi yoshlar buni tasavvur ham qilolmaydi. Sheralining repertuarida millatimizni, milliy qadriyatlarimizni ulug‘lovchi ashulalar ko‘p. Bu ezgu niyatni amalga oshirishda u mumtoz adabiyotimizdan, xususan, Navoiy, Bobur g‘azallaridan unumli foydalandi. Hazrat Navoiy g‘azaliga Omon Matjon muxammas bog‘lagan “Avvalgilarga o‘xshamas” ashulasidagi “Ko‘nglim ichra dard-u g‘am avvalgilarga o‘xshamas” yoki “Endi inson qadri ham avvalgilarga o‘xshamas” satrlarini kuylaganida hofiz dilidan nelar kechdi ekan. Bunday misollar Sherali Jo‘rayev g‘oyat bilimdon, ko‘p o‘qigan, eng muhimi, millat taqdiri, kelajagi uchun jon kuydirgan san’atkor, fidoyi inson ekanini ko‘rsatadi.

Sherali Jo‘rayevni turli holatlarda, turli vaziyatlarda ko‘rganman: eng yuqori darajadagi tadbirlarda, katta konsertlarda, shaxsiy konsertida, katta-kichik davralarda... U xonanda sifatida tanilganidan umrining oxirigacha deyarli o‘zgarmadi, yaxshi-yomon kunlarida ham. O‘ziga xos g‘urur, ayni chog‘da kamtarlik, saxovatpeshalik... Xullas, mashhur insonlarda bo‘ladigan barcha xislat-u fazilatlar mujassam edi unda. Doimo elning ko‘zida yuradiganlarga oson emas. Mashhurlikning yukini ko‘tarishning o‘zi bo‘lmaydi. Gapning lo‘ndasini aytganda, Sheralining fazilatlari ham, ayrim qusurlari ham o‘ziga yarashardi. Yurish-turishi-yu kiyinishi, so‘zlash ohangi-yu odamlar bilan muloqoti ham o‘ziga xos edi. Shunday xislatlari bilan Sherali edi-da.

Mamatqul HAZRATQULOV

Sherali JO‘RAYEV,
O‘zbekiston xalq artisti

Turkiy elim, sen azaldan buyuk eldursan...

QARASHLARGA

Shirin jonim fido bo‘lsin o‘shal bo‘ylab qarashlarga,
Gahi yayrab, gahi o‘ynab, gahi so‘ylab qarashlarga.

Bu ne rohat deya qalbim nishon o‘lmoqqa hozirdur,
Otish-chun shay bo‘lib qoshlar o‘qin joylab qarashlarga.

Qoshing ostidagi ayyor nishonga oldilar nogoh,
Meningdek notavon shoddir, o‘qin saylab qarashlarga.

Raqiblar sezsalar, jonon, kuyib kul bo‘lgusi shul dam,
Alardin ajratib bizni, suyib, siylab qarashlarga.

Tig‘ing yetganda ko‘ksimga, ki ko‘zlar to‘qnashib qolg‘ay,
Nishonga tegdimi, yo‘qmi, deya o‘ylab qarashlarga.

Muruvvat qilmasang qalbim yarosi bitmag‘ay endi,
Dilim mushtoq, borurman deb imo aylab qarashlarga.

Kel, endi bir visolingga yetay, dilxasta oshiqman,
Sababdursan dili yig‘lab, tili kuylab qarashlarga.

Tun-u kun oy, quyosh yanglig‘ ko‘zim ustida bo‘l, jonim,
Sabab bo‘lma oy-u yillab yo‘ling poylab qarashlarga.

SOHIBQIRON

Turkiy elim, sen azaldan buyuk eldursan,
Chunki senda qismati bor Sohibqironning.
Mehmonnavoz, qo‘li ochiq, ochiq dildursan,
Chunki senda himmati bor Sohibqironning,
Senda buyuk xislati bor Sohibqironning.

Amir Temur tug‘ilgan el turkiy barlosdur,
Eron yo Rum, Xitoy, Hinddan butkul xalosdur,
O‘zbek, qirg‘iz, qozoq, tojik, balki xakosdur,
Uyg‘ur, totor, chuvosh, turkman turkiyga xosdur,
To‘qson ikki elati bor Sohibqironning.

Allohga qul, Muhammadni rasul bilgan el,
Amir Temur davlatida toshib to‘lgan el,
Temur o‘tgach har tarafga tarqab ketgan el,
Butun kelib o‘zligini anglab yetgan el,
O‘zbek degan millati bor Sohibqironning.

Temur o‘tgach saltanatni buzdilar uzoq,
Turkiylarning ko‘ksida bu alamli bir dog‘,
Lekin Temur saltanatin poydevori sog‘.
Dilni poklab, poydevorga g‘isht qo‘ying oppoq,
Shunday buyuk davlati bor Sohibqironning.

Minoralar Temuriylar savlatidandur,
Madrasalar pok iymonning sarhadidandur,
Alisher ham Temuriylar avlodidandur,
Sherali ham uning buyuk davlatidandur,
Tugab bitmas san’ati bor Sohibqironning!

QATORINGDA NOR BO‘LSA

Yuking yerda qolmag‘ay, qatoringda nor bo‘lsa,
Aro yo‘lda qolmaysan, do‘sti yoring bor bo‘lsa,
Sevib-sevib olganing go‘zal – betakror bo‘lsa,
Oltin-u zar ko‘rinmas yoningda dildor bo‘lsa.

Oqibatli qarindosh ajralmagay ming yilda,
Me’roj otang boshida, jannat onang poyida,
Ketsa agar topmassan, yuz-ming yilda joyida,
Oyog‘ini o‘p doim ota-onang bor bo‘lsa.

Belingda kuch borida oilangni shod ayla,
Qo‘yningdagi haloling ko‘nglini obod ayla.
Farzanding-chun Allohdan baxt tilab, duo ayla,
Inson nomi o‘chmagay o‘g‘il-qizi bor bo‘lsa.

Hisobini bilmasang, tijorating mo‘l bo‘lmas,
O‘ylamasdan qo‘yilgan qadamlaring yo‘l bo‘lmas.
Kelinlari tul bo‘lmas, o‘g‘lonlari qul bo‘lmas,
El tinchligi buzilmas, insonlar hushyor bo‘lsa.

Vatan deb oh urmakni vatansizdan so‘rab ko‘r,
Vatanini sotmakni iymonsizdan so‘rab ko‘r,
Vatanga yov ko‘z tutsa, iymoningni sinab ko‘r,
Vatan qo‘ldan ketmagay mard o‘g‘lonlar bor bo‘lsa.
Tangri o‘zi bermasa, zar bersang-da bor bo‘lmas,
Tangri aziz etganlar ikki dunyo xor bo‘lmas.
Ishlari bekor bo‘lmas, nomardlarga zor bo‘lmas,
Dunyo ko‘zga tor bo‘lmas Tangri madadkor bo‘lsa.

BIR GUMON

Bir gumon bordir mening qalbimda doim begumon,
Bu gumondan lahza ham qalbim topolmas hech omon,
Voh, ne tong, boqqach u mohro‘ ruxsorim etmishdur somon,
Bu nigohdin qochmoq istab, o‘zni tashlab har tomon,
Chin xazondek poyin o‘pdim zora topsam deb omon.

Vah, qutulmoqlik gumondir bargi xazondek ham yotib,
Nozaninlar sayr etarda nozik oyog‘iga botib,
Iltifot qilg‘ay yana shirin-shakar so‘zlar topib,
Bu ne sorig‘ barg ekan, deb olg‘ay ro‘molig‘a taqib,
Yuz-u ko‘zidan yiroqroq ko‘rmadim o‘zni hamon.

Men sanamlardan necha qochsam-da, oxir topdilar,
Ro‘yi afgorim ko‘rib, qayg‘u-alamg‘a botdilar.
Qop-qaro tun sochlarin jonsiz tanamg‘a yopdilar,
Lab qo‘yib suvsiz labimg‘a lyso sifat uyg‘otdilar,
Jonim o‘rtandi yana labga lab yetgan zamon.

Ushbu holim anglag‘ach borg‘il dedi piri mug‘on,
Xonaqoh mehrobida topg‘il o‘zing, bo‘lg‘il omon,
Sajda ayla Haq yo‘lida, qalbingda qolmas der gumon,
Xonaqoh mehrobida, e voh, ko‘zim surtgan zamon,
Zarralardan termulib turgay sanamlar men tomon,
Shul gumon bordir mening qalbimda doim begumon,
Bu gumondan lahza ham qalbim topolmas hech omon.

DO‘ST BO‘LSANG

Kelgil, ey jon-u dilim, sen mening yonimda tur,
Yonda ne? Balki manim aylanar qonimda tur,
Beqaror qon bu nadir?! Sen shirin jonimda tur,
Bevafo jon deydilar, pokiza iymonimda tur,
Har yomon-u yaxshi kunda – barcha imkonimda tur,
O‘ngda tur, yo so‘lda tur, do‘st bo‘lsang, yonimda tur.

“Do‘sti ko‘p qaddi bukilmas”, – deydilar qon kechsa ham,
Kechmagay mard do‘stidan, mol-u jondan kechsa ham,
Borma deb, garchi raqiblar zar choponin yechsa ham,
Garchi taqdir xush kelib, yo‘lingga gullar sochsa ham,
Mayli, har ne kechsa ham, do‘st bo‘lsang, yonimda tur.

Mol-u davlat qo‘lda bo‘lsa, do‘st-u yor ham ko‘p bo‘lar,
Qayga borsang, olqish-u maqtovchilar ham xo‘b bo‘lar,
Hech qoqinma, gar qoqinsang g‘iybatchilar to‘p-to‘p bo‘lar,
Munofiq ham soxta do‘sting dushmaningga aylanar,
Mayli, har ne gap bo‘lar, do‘st bo‘lsang, yonimda tur.

Har yomon-u yaxshi kunda ko‘zlarim do‘st axtarar,
Bu ko‘ngil har soniya ming shirin so‘z axtarar,
Kimki oni topmadi, bitta gulyuz axtarar,
Charx urib oy-u quyosh ham kecha-kunduz axtarar,
Top, meni, do‘st axtarar, do‘st bo‘lsang, yonimda tur.

Nozaninlar bazmida aytilar mastona so‘z,
Termulib joningni olg‘ay surmali mastona ko‘z,
Kelgil, ey jonimki, sendan tinglayin do‘stona so‘z,
Qo‘llarim tutsin belingdan, surtayin poyingga yuz,
Bazmi dildoshlarni tuz, do‘st bo‘lsang, yonimda tur.

Ota-onag‘a o‘g‘il-qiz mehribondir do‘st bo‘lsa,
Hatto sevgan sevgiling ham vafodor do‘st bo‘lsa,
Yuzni burma og‘a-ini garchi ming xil so‘z bo‘lsa,
Yetti yot begonalar ham birodardir do‘st bo‘lsa,
Mayli har ne so‘z bo‘lsa, do‘st bo‘lsang, yonimda tur.

Bu jahonda do‘st yo‘q, deb urma oh, qilma xitob,
O‘zni top ham Haqni top, deb, Tangri bergan bir kitob.
Haqni topsang, do‘stni topding,
do‘st qidirsang – Haqni top,
Zarra imkoning bo‘lsa, bir g‘arib ko‘nglini top,
Haq yo‘linda qil savob, do‘st bo‘lsang, yonimda tur.

ISHONCHNI TIRILTIRMOG‘IMIZ KERAK

Boshlanishi 1-sahifada.

– Kitobxonlik masalasi Davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Tanlovlar, tadbirlar va turli targ‘ibot ishlari o‘tkazilmoqda. Kitob o‘qiganlar turli yo‘llar bilan rag‘batlantirilmoqda. Bunday xayrli ishlar nashriyotlar faoliyatida ham aks etayapti. Shunga qaramay, bu soha jonlanib ketmayapti, ayrim hollarda muammo girdobida qolib ketgan sohaga aylanmoqda. Bugun kitob nashri va bozorida qanday muammolar bor?

– Darhaqiqat, noshirlik sohasida bir talay ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Faoliyat yuritish uchun litsenziya olish amaliyoti bekor qilinib, xabardor qilish tizimiga o‘tilganining samarasi o‘laroq nashriyotlar soni bir necha baravarga oshdi. Natijada kitoblar ko‘paydi. Sohada o‘ziga xos jonlanish paydo bo‘ldi. Kitobxonlikka ham e’tibor berilyapti. Aytganingizdek, rag‘batlantirilyapti. Ammo taraqqiyotning oltin qoidasi shuki, to‘xtash tanazzul bilan teng. Yutuqlar, zabt etilgan marralarni doimiy tarzda yangilari bilan mustahkamlab turish kerak. Bunga esa tahlil va vaziyatni tanqidiy nazar bilan o‘rganish vositasida erishiladi. Jadid zehniyatining o‘zaklaridan biri ham – shu. Jamiyat qon tomiriga barmoq bosib, undagi ehtimoliy “dard”lardan ogoh etish ma’rifatparvar bobolarimizga xos edi. Gazetangiz shu yo‘lning davomchisi bo‘lgani uchun holimizni tortinmasdan dasturxon qilmoqchiman.

Men noshirlikning qattiq nonidan totinib yurganimga 25 yildan oshdi. Oxirgi bir-ikki yil butun faoliyatim davomidagi eng og‘ir yillar bo‘ldi, desam adashmayman. To‘g‘ri, doim muammolar bo‘lgan. Faoliyat yurgizish deganda, qaysidir ma’noda, muammolarni bartaraf etishni tushunamiz. Ammo hozir muammolar yalpi xarakter kasb etayotganligi bilan biroz xavotir uyg‘otyapti. Keling, bir chetdan boshlaymiz. Asosiy muammo – noshirlarning saviyasi. Yaqinda bir loyiha bahonasida qator yetakchi nashriyotlar rahbarlari bir joyga to‘planib qoldik. Loyiha ilmiy, akademik kitoblar nashri haqida edi. Shunda aksariyat noshirlar ilmiy nashr bilan publisistik nashrni farqlay olmasligi ochilib qoldi. O‘nlab kitob chiqargan, kitoblari ijtimoiy tarmoqlarda faol reklama qilinayotgan bir noshir chop etayotgan kitoblarida xatolar ko‘pligi bot-bot tanqid qilinaverishiga javoban kitob matni tashih – korrektura qilinishi kerakligini bilmasligini ochiq tan oldi. Boshqa bir noshir tahrirni senzura deb tushunishini eshitganimda, o‘zimdan uyalib ketdim negadir. Oqibatda g‘ij-g‘ij xato to‘la kitoblarga ko‘nikdik. Obro‘li, tajribali nashriyotlarning kitoblarida ham bir sahifada bir nechta imlo va uslubiy xatolar uchrayapti. Fosh bo‘lganda, e’tiroz bildirilganda ular bu holat go‘yoki me’yoriydek tutmoqda o‘zlarini. Demak, axloq, insof me’yorlarimiz zil ketib ulgurdi. Kitoblardagi sahifalash bilan bog‘liq texnik muammolarni aytmasak ham bo‘ladi.

– Qo‘lbola noshirlik bu sohadagi tanazzulning asosiy omili, demoqchisiz-da...

– Aynan shunday. Havaskor, malakasiz va soxta noshirlar urchigan davrda yashayapmiz. O‘zi kitob o‘qimagan, eplab jumla tuza olmaydiganlar nashriyot ochib tijorat yurityapti. Ayniqsa, tarjima kitoblari haqida gap ketganda xuddi o‘zimiz kabi holimizga maymunlar ham goh yig‘lab, goh kulyapti. “Google” tarjimon yordamida o‘girilgan, so‘zlar tizmasidan ma’no anglashilmaydigan, millioner bo‘lish sirlarini o‘rgatadigan kitoblar to‘plam holatida “har bir tadbirkor o‘qishi shart” degan yorliq bilan Instagramda Beshyog‘ochning gummalaridek chaqqon pullanmoqda. Turkcha kitoblar-ku, haqiqiy “epidemiya” bo‘ldi. Millatning didiga chipqon toshiradigan epidemiya. Nomlaridan boshlab chuchmallik ufurib turgan bu kitoblar ta’sirida majruh bo‘lgan didlarning oqibati hali uzoq vaqt aks sado berib turadi. Bu vaziyat izsiz o‘tib ketmadi. Kitobxonda sekinlik bilan kitob ilm, estetika, go‘zal hissiyotlar manbai, deyarli muqaddas hodisa, degan ishonch yemirilib bormoqda. Odamlar kitobdan qayta boshladi. Natijada, masalan, “Akademnashr”da nashr rejasiga kiritilgan aksariyat kitoblar 2021-yilgacha 3000–5000 atrofida chop etilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1000–1500 donani tashkil etmoqda. Bu o‘z-o‘zidan kitobning qimmatlashuviga, moddiy rag‘batning yo‘qligi sabab yuqori malakali xodimlar sohani tark etishiga olib keldi.

— “Mag‘zi to‘q kitoblarni saralab o‘qi. Aks holda, bir uyum qog‘oz hayotingni zaharlashi mumkin”, deb ogohlantirgan buyuklarimiz. Bunday ko‘zbo‘yamachiliklar, zarqog‘ozga o‘rab sotilayotgan ta-



nazzul, ma’rifat niqobi ostidagi ma’rifatsizlikdan qanday qutulish mumkin, deb o‘ylaysiz?

– Dunyodagi eng iqtisodiy barqaror, fuqarolarining xarid quvvati juda yuqori bo‘lgan mamlakatlarda ham kitob imtiyozlar hisobiga iste’mol bozorida yashab tura oladi. Bu haqda juda ko‘p chiqishlar qilindi. Kitobga QQS joriy qilinayotganda zorlanib rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tartibni misol keltirdik. Ammo birov eshitmadi. O‘sha qadamlarning oqibati – bugungi ahvolimiz. Hattoki bolalar kitoblaridan ham imtiyozlarni butunlay olib tashladik-a?! Shu harakatni ramziy ifodalashni so‘rashsa, xayolimga ilk keladigan tasvir nima, bilasizmi? O‘z ildizini o‘zi bolta bilan chopayotgan daraxt. Bizdan boshqa birov qilmagan bo‘lsa kerak shu ishni.

Ochig‘i, so‘nggi kunlarimizni bu muammolar tez orada barham topib, vaziyat yaxshi tomonga o‘zgarishidan umid qilib o‘tkazyapmiz. Chunki Prezidentimiz 2023-yil 22-dekabrda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi ma’ruzasida nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilishi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlanishi zarurligini alohida ta’kidladilar. Shu maqsadda ushbu korxonalar 5 yilga soliqlardan ozod etilishi ma’lum qilindi.

– Xuddi ovqat yeyish jismning ehtiyoji bo‘lgani kabi kitob o‘qish ruhning ehtiyoji bo‘lmog‘i lozim. Aslida insonning boshqa jonzotlardan farqi ham shunda, ya’ni o‘z ruhini, ma’naviyatini yuksaltirish, kamolotga erishish uchun harakat qilishida. Sizningcha, buni odamlar ongiga singdirish, kitob mutolaasini ruhning doimiy ehtiyojiga aylantirish uchun nima qilsa bo‘ladi?

– Odamlarga kitobni tanitish kerak. Foydasini tushuntirish kerak. Ilm, ma’rifat najot ekanligiga ishontirish, jonli misollar bilan ko‘rsatish kerak. Boshqa yo‘lini tasavvur qila olmayman. Bular umumiy gaplar. Shuni qanday amalga oshirish mumkin, deb o‘ylaysiz? Aslida bu savolning tayyor javobi bor. O‘zaro muloqot muhitini tiklash kerak. Ya’ni, intellektual muloqot muhitini. Masalan, adabiy jarayon, adabiy muhit mudroqligi haqida ko‘p eshitamiz. Yaxshi-yomon asarlar yaratilyapti, ammo ularga aks sado, xolis baho yo‘q. To‘rt-beshta romani kitob bo‘lib chiqqan, ammo adabiy jamoatchilik tomonidan bir og‘iz e’tirof etilmagan yozuvchilar bor. Deylik, Baxtiyor Abdug‘afur. Qator tarixiy romanlari bilan o‘quvchilarga tanildi. Bu asarlar o‘quvchi muhabbatini qozona oldi. Ammo qani ularga professional baho? O‘quvchilarning mehri tushishi asoslimidi o‘zi? Yoki 3 yoshli bolalar uchun qiziqarli rivojlantiruvchi kitoblar tayyorlayotgan jonkuyar muallif Dinara Mo‘minova haqida eshitganmisiz? O‘nlab kitoblari bor. Ayrimlari nashr etildi. Katta qismi nashr qilinmagan hali, “Amazon” orqali tarqatiladi. Ularga ham professional baho, targ‘ibot kerak. Soha mutaxassislari esa jim. Avvallari bunday muloqot vaqtli bosma matbuot sahifalarida kechgan. Hozir zamon ham, vositalar ham o‘zgardi. Biz o‘sha vositalardan mahrum holatga tushib qoldik. Bu – dunyoning tajribasi. Gap “Goodreads”, “Livelib” singari resurslar haqida bormoqda. Shuni anglagan holda kitobxonlar uchun hamjamiyat, ijtimoiy tarmoq yaratgan bo‘ldik. Gap “Yoki” haqida bormoqda. Ammo uni yetarli darajaga olib chiqishga ham iqtisodiy, ham ma’naviy jihatdan ojizlik qilyapmiz. Aslida kitobxonlik yo‘lidagi eng katta to‘siq shu yo‘l bilan bartaraf etilishi mumkin. Bu to‘siq: sifatli va sifatsiz kitobni farqlay olmaslik. Ha, taassuflar bo‘lsinki, bugun bizning kitobxonlarimiz yaxshi kitobni tanlab, topib ololmay qoldi. Tanlash malakasi deymizmi yoki saviyasi, darajasi deymizmi, tanazzulga yuz tutdi. Oqibatda sifatsiz, yengil-yelpi kitoblarni zarqog‘ozga o‘rab, bemalol sotish boshlanib ketdi.

– Yaqinda “Akademnashr” nashriyoti o‘qituvchilar uchun doimiy 10 foizlik chegirma e’lon qildi. Buni kitobxonlik targ‘iboti bilan ham bog‘lagansiz. Bundan ko‘zlangan maqsad nima?

– Bilasizmi, bir gal Xitoyda safarda bo‘lganimda o‘zbekistonlik olima, Xitoy millatlar universiteti o‘qituvchisi Dilsora Mirzaahmedova bilan hamsafar bo‘lganman. Dilsora do‘konlarda sotuvchilar bilan savdolashar ekan, avvaliga xitoy tilida gaplashayotgan ajnabiyligini oshkor etib chegirma olardi, so‘ng o‘qituvchiligini aytib. Qizig‘i, u chegirma so‘ramas edi, o‘qituvchi ekanligini “bilib qolgan” sotuvchilar o‘zlari narxni tushirib berishardi. Bunga o‘xshash hurmat izhorlari jamoat transportlari yoki tibbiyot maskanlarida ro‘y berishini Yaponiya, Shveytsariya yoki Germaniya misolida ham ko‘p kuzatganmiz. Ulardan olgan xulosam shuki, rivojlanishning birinchi sharti ma’rifatga, xossatan uni tarqatuvchilarga ehtirom ko‘rsatishdir. Bu o‘zim anchadan buyon takrorlab yuradigan: “Kitobxonlik targ‘iboti yo‘lidagi ilk qadam kitob o‘qiydigan odamlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish bo‘lishi kerak”, qoidasiga ham aynan mos edi. Chunki kitobxonning asl namunasi o‘qituvchilardir. Yoki shunday bo‘lishi kerak.



Sanjar NAZAR,
“Akademnashr” nashriyoti direktori

Mamlakatimizda kitobxonlikni targ‘ib etish uchun, otamizdan-da ulug‘ insonlar – ustozlarga rahmatimizning ifodasi sifatida, mamlakat rivojiga ham baholi qudrat qo‘shgan hissamiz bo‘lar, degan umidda “Akademnashr”ning barcha kitoblariga o‘qituvchilar uchun 10 foizlik chegirma e’lon qilamiz. Bu chegirma “Akademnashr” faoliyatining so‘ngigacha davom etishini niyat qilganmiz. Shu harakat keng yoyilishidan, boshqa ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchilar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanib, milliy an’ana darajasiga ko‘tarilishidan umidvormiz.

– Chegirma e’lon qilinganidan so‘ng o‘qituvchilar ko‘proq kitob xarid qilishyaptimi? Umuman, bu sa’y-harakatga munosabat qanday bo‘ldi?

– Odatdagidan ko‘proq xarid qilayotganliklarini sezmadim va bu bir jihatdan xavotirli belgi. Aslida esa bu ishdan ko‘zlangan maqsad darrovdan hosil bo‘lib qolmasligi ayon edi. Chegirmamizga sof marketing amaliyoti, deb qaralganda ham, u olis istiqbolda ko‘proq kitob sotilishi uchun zamin yaratsa kerak. Shu o‘rinda, ijozatingiz bilan, boshqa bir bilvosita aloqador mavzuga ham to‘xtalib o‘tsak. “Akademnashr” kitoblariga o‘qituvchilar uchun chegirma e’lon qilgach, afsuski, biz ishonch inqirozi davrida yashayotganimizga yaqqol amin bo‘ldim. Bir-birimizni aldayverdik, shartnomalarni buzdik, qarzlarimizni qaytarmadik, omonatga xiyonat qildik, oqibatda oramizdan ishonch ko‘tarilib ketdi. “O‘qituvchi ekanligini qanday tekshirib olasizlar?” Bu chegirmaga qiziqqan kitobxonlar tomonidan eng ko‘p berilgan savol bo‘ldi. Nega tekshirishimiz kerak? Qizig‘i, tekshirib ko‘rish umuman bizning xayolimizda ham yo‘q edi. Shunchaki, “o‘qituvchiman” degan bir og‘iz so‘ziga ishonamiz. Ishonmoqchimiz. Balki chegirmadan ko‘ra mana shu ishonch manfaatliroq bo‘lar, deb ham umid qilyapmiz. Zora, ishonch tirilsa. Bir-birimizga qaytadan ishona boshlasak.

– Yuqorida tan olganingizday, noshirlikning nonini yeyish oson emas. Qiyinchiliklarga qaramay, 25 yildan buyon shu sohada faoliyat yuritayotganingizni qanday izohlaysiz?

– Kitob nashr etish biz uchun faqat ish emas, ishq hamdir. U tirikchilik emas, tiriklik shartiga aylanib bo‘lgan. Qolaversa, postmodern dunyoda zavq o‘lib qolgan. Shuning uchun so‘nggi paytlarda eng katta mablag‘lar zavq sotish vositasida qozonilmoqda. 11 million yevroga sotilgan “Bugatti” avtomobilining o‘zimizning Neksiyadan asosiy farqi ham aynan ko‘proq zavq bag‘ishlay olishida. Texnik ko‘rsatkichlar va boshqa jihatlar har qancha oliymaqom bo‘lmasin, farq 1000 baravar emasligi tayin-ku. Men noshirlikdan, har bir yangi nashr etilgan kitobimizdan o‘sha 11 million yevrolik qiymatga ega zavqdan kamini totmayman. Shuning uchun kitob chiqarib, noshirlik kasbini tutib, o‘zimni ziyon ko‘rayotgandek his qilmayman. Ha, noshirlikning noni qattiq, ammo u lazzatli, oshiqona va hayotbaxshdir.

Oydin YO‘LDOSHEVA
suhbatlashdi.

MEHR

Ota – oilaning ustuni, himoyachisi, boquvchisi hisoblansa-da, odatda ro‘zg‘ordagi sog‘lom muhitni ayollar belgilaydi. Sabr-bardoshli, tadbirli, itoatkor ayol, har qanday vaziyatda ham erini, farzandlarini to‘g‘ri yo‘lga solib, xonadoniga fayz-baraka, tinchlik-osoyishtalik va pokizalik baxsh eta oladi. Oilaning har tomonlama mukammal bo‘lishi uchun tabiiy muhitning o‘zi kamlik qiladi. Qaysi oilada ko‘proq kitob, gazeta va jurnallar mutolaa qilinsa, tarbiya borasida maqsadga oson erishiladi.

QAYNONAMNING KITOBLARINI O‘QIB...

Men Nurota tumani axborot-kutubxona markazida yigirma ikki yildan buyon mehnat qilib kelyapman. Yillar mobaynida shuni angladimki, kitobxonlar orasida uyushmagan va ishsiz yoshlar, katta yoshdagi onaxonu otaxonlar, mansabdorlar, qo‘l-oyog‘i chaqqon uy bekalari, maktab o‘quvchilari ozchilikni tashkil etadi. Yaqinda tumanimizdagi mahallalar bilan kelishgan holda, aholiga qulaylik yaratish maqsadida ko‘chma kutubxona tashkil qildik. Ko‘chma kutubxonada insonni mushohada qilishga, oila muhitini mustahkam shakllantirishga chorlaydigan ajoyib asarlar bor. Maqsadimiz “Har bir xonadon – kitobxon” loyihasi asosida tumanimiz hududidagi aksariyat oilalarga kirib borish, ularning ma’nan va ruhan o‘sishlariga amaliy yordam berishdan iborat. Tadbir bahona “Mirishkor”, G‘afur G‘ulom, “Mustaqillik” kabi o‘nlab mahallalarda istiqomat qilayotgan zamondoshlarimizning kitob o‘qishga bo‘lgan xohish va ishtiyoqini o‘rgandik. Bu tadbirimiz yaxshi samara bera boshladi. Fuqarolarimiz bugunga kelib kitob tanlay boshladilar. Ba’zi kitobxonlarimiz Alisher Navoiy, Bobur asarlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qishga qiynalayotganiga ham guvoh bo‘ldik. Demak, kitobxonlikni xalqimiz orasida keng targ‘ib etish uchun o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini tushunishni osonlashtiradigan qo‘llanmalarni ko‘paytirishimiz lozim.

Kunlarning birida axborot-kutubxona markaziga bir onaxon kirib kelib, uzoq vaqt kitob tanladi. Javonlarga mehr va quvonch bilan ko‘z yugurtirdi. Onaxon bilan tanishdim. Ta’kidlashicha, u juda erta, ya’ni 19 yoshida turmushga uzatilgan ekan.

– Qizim Zumradxon tug‘ilganda bola tarbiyalashni bilmas edim, – deydi onaxon. – Shunday og‘ir kunlarda qaynonamdan tengsiz takalluf va mehr ko‘rdim. Bilmaganlarimni erinmasdan, koyimasdan o‘rgatdi, kamchiliklarimni tuzatdi. Kezi kelganda meni erimning, qayinsingillarimning tanbehlaridan himoya qildi. Oradan yillar o‘tib, yana ikkita farzandli bo‘ldim. Hayotimiz izga tushdi. Navbatma-navbat qayinsingillarimni uzatdik. Erim ham farzandlarimizga mehr qo‘yib, o‘rtamizdagi muhabbat rishtasi mustahkamlandi. O‘sha paytlarda qaynonamning yoshlari ancha ulug‘ bo‘lsa-da, qo‘lidan kitob tushmas edi. O‘zi o‘qigan kitoblarni menga berib, diqqat bilan o‘qib chiqishimni tayinlar, adabiyot yo‘li ulug‘ yo‘l ekanligini qayta-qayta ta’kidlar edi. Shu-shu qaynonamning talablari bilan men ham kitobga mehr qo‘ydim. Undan behisob kuch-qudrat, sabr-qanoat topdim. Ollohga shukr, farzandlarim ham adabiyotga ishtiyoqmand bo‘lib o‘sdi. Agarda qaynonam ko‘p kitob o‘qimaganida, biz farzandlariga nisbatan qattiqqo‘l, qahr-g‘azabli bo‘larmidi, deya o‘ylanib qolaman gohida. Men kitob hamda kitobxon qaynonam tufayli oilamizni parokandalikdan saqlab qoldim, deya baralla aytaman. Meni shunday qaynonaga duch qilgan taqdirimdan roziman.


Ma’suma onaxonning bu kabi dil so‘zlarini tinglar ekanman, ich-etim jimirlab ketdi. Afsuski, kitobxonlikning bu kabi foydasi haqida hammamiz ham yetarli tushunchaga ega emasmiz.

Qissadan hissa shuki, badiiy adabiyot insonning hayotini, uning oilasidagi muhitni tubdan o‘zgartirib yuborishiga zarracha shubha yo‘q. Mahallalarimizda kitobsevar onaxonlar, otaxonlar, aka-uka, opa-singillarimiz ko‘p bo‘lsa, kutubxonalarimizning javonlari oilalarimizda ahillik, mehr-oqibatni ta’minlaydigan asarlar bilan to‘lib tursa, nur ustiga nur bo‘lar edi. Shuni ham ta’kidlashni istardimki, umumta’lim maktablarining o‘qituvchi va o‘quvchilari davrasida kitobsevar zamondoshlarimiz bilan turli ijodiy uchrashuvlar, ko‘ngilochar tadbirlar tashkil qilinsa, mustahkam oila sari dastlabki muhim qadamlarni tashlagan bo‘lar edik.

Zebiniso IBRAGIMOVA,
Navoiy viloyati Nurota tumani axborot-kutubxona markazi xodimi

2024-yil 23-fevral
№ 9(9)

MUXTORIYAT LOYIHASI



Temur XO‘JAO‘G‘LI,
Michigan davlat universiteti faxriy professori,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti professori

Boshlanishi 1-sahifada.

Loyihada Behbudiy Davlat dumasiga Turkistonning musulmon aholisi nufuziga mos vakil saylanishi, diniy idora ishlarida erkinlikni, Turkistondagi har qanday darajadagi boshqaruvda mahalliy aholi vakillarining ishtirokini ta’minlash, turkistonliklar uchun majburiy va bepul umumta’limni joriy etish, ularning roziligisiz Turkistonga Rusiyaning boshqa hududlaridan aholini ko‘chirishni to‘xtatish, rus istilosi davrida tortib olingan vaqf mulklarini qaytarish kabi muhim talablarni ilgari suradi. Behbudiy bu loyihada bitilgan ism-sharifi va mansabi ostiga muhrini ham bosgan.



Buxoro jumhuriyatining 1921-yildagi 3-qurultoyi.
Chapdan: *1.Abdurauf Fitrat, 4.Fayzulla Xo‘ja, 6.Usmon Xo‘ja, 7.Otaulla Xo‘ja (Usmon Xo‘janing ukasi). Bayroq ustida to‘rtta arab harfi bor: “B, X, Sh, J”; ya’ni Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyati.)*

BEHBUDIY QO‘LYOZMASINING SARGUZASHTI

Behbudiy tomonidan 1907-yil noyabr oyida Dumaga yuborilgan “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasi 2001-yilgacha topilmagan edi. Bu noyob tarixiy loyiha asl qo‘lyozma nusxasining topilishigacha bo‘lgan sarguzashti juda qiziq.

Dumaga topshirilgan Behbudiy qo‘lyozmasining asl nusxasi keyinroq jadidlik harakatining atoqli rahbarlaridan biri Ismoilbek G‘aspiralining arxivida saqlangan. Ismoilbek 1914-yili vafot etganidan keyin, o‘g‘li Rifatbek bilan qizi Shafiqa xonim (1886 – 1975) 1918-yilgacha Ismoilbekning mashhur “Tarjimon” gazetasi faoliyatini davom ettiradilar. Jadid ayollarning taniqli yetakchisi Shafiqa xonim ozarbayjonlik jadid ziyoli Nasibbey Yusufbeyli bilan 1906-yilda turmush qurgan va 1917-yilda tuzilgan Qrim-tatar muxtor hukumati deputati bo‘lgan.




Shafiqa G‘ASPIRALI


Lekin 1919-yili Qizil armiya Qrimga bostirib kirib, Qrim-tatar muxtoriyatini qulatgandan keyin, Shafiqa xonim bolalari bilan Bokuga, eri Nasibbeyning yoniga boradi. Bu paytda Nasibbey 1918-yili tuzilgan Ozarbayjon jumhuriyatining Bosh vaziri edi. Lekin Qizil qo‘shinlar 1920-yil Bokuga bostirib kirib, mustaqil Ozarbayjon jumhuriyatini yo‘q qiladi va 31-mayda Bosh vazir Nasibbeyni otib o‘ldiradi.

Shafiqa xonimga Bokuda Turkiya elchisi bo‘lgan taniqli yozuvchi Memduh Shevket Esendal ko‘mak berib, uni va ikki bolasini turk askarlari yonida Anqaraga omon-eson yuboradi. Shafiqa xonim Bog‘chasaroydan Bokuga va u yerdan Anqaraga qilgan safarlarida ikkita bolasidan tashqari, dadasining arxividan turli noyob hujjatlarni ham birga olib yurgan. Shafiqa G‘aspirali 1975-yil 31-avgustda Anqarada vafot etadi. Bungacha u otasi Ismoilbek G‘aspiralining arxivini kelib chiqishi qrim-tatar bo‘lgan turk tarixchisi Nesip Hablemito‘g‘li (1954-2002)ga beradi.

Men otam Usmon Xo‘jao‘g‘li uchun bir armug‘on kitobi tayyorlayotganimda, 1999-yili Nesip Hablemito‘g‘liga murojaat qilib, uning qo‘lidagi G‘aspirali arxivida Turkistonga tegishli biror hujjat bor-yo‘qligini so‘ragan edim. Bir necha kundan keyin Nesipbey menga Behbudiy qalamiga mansub mazkur loyihaning rangli fotolari bilan fayl yubordi. Nesipbey o‘shanda bu qo‘lyozma hujjatning mazmunini to‘liq bilmagani uchun menga: “Bu hujjatga qarab qo‘ying, balki nashr etishga arzir?” deb aytdi. Men hujjatni sinchiklab o‘qib chiqqanimda, Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlarining shu kungacha noma’lum, Turkiston tarixi uchun juda noyob bir loyihasi ekaniga amin bo‘ldim.

Keyin men bu “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasining foto va qo‘lyozmasining lotin transkripsiya matnini 2001-yilda Gollandiyada nashr etilgan “Turkistonda yangilik harakatlari va inqiloblari” 1900-1924: Usmon Xo‘ja Armug‘oni” nomli kitobimda nashr qildim. Kirish so‘zida bu hujjatning qay tarzda I.G‘aspiralidan qizi Shafiqa xonimga, undan Nesip Hablemito‘g‘li qo‘liga, undan menga o‘tganini qisqacha bayon qildim. Lekin bu yerda judayam achinarli bir voqea borki, uni ham aytishim kerak: hurmatli olim Nesip Hablemito‘g‘li menga Behbudiyning mazkur loyihasining elektron nusxalarini bergandan keyin uch yil o‘tgach, 2002-yil 18-dekabrda terrorchilar uyushtirgan qotillik qurboni bo‘ldi. Agar Nesip Behbudiy loyihasining suratlarini menga bermaganida bu noyob hujjatdan bugun ham bexabar qolardik. Yana bir marta marhum Nesip Hablemito‘g‘lining ruhiga Allohdan rahmat tilayman!





Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasi 1, 2-sahifalari.

“TURKISTON MADANIY MUXTORIYATI” LOYIHASINING AHAMIYATI

Behbudiy yozgan loyihani diqqat bilan o‘qiganimizda, shu narsa aniqlandi: loyiha nomi “Turkiston madaniy muxtoriyati” bo‘lishiga qaramay, undagi moddalarning mazmunida ochiq-oydin “siyosiy muxtoriyat” talabi bor! Ularda Chor Rossiyasi hukumatidan Turkiston uchun siyosiy haq-huquqlar talab qilingan.

Qo‘lyozmasining birinchi sahifasida Behbudiy o‘zini shunday tanitadi:

“1907-sana, noyabr Samarqanddan Ittifoqi Muslimiyn Idorayi Markaziyasi Mufti Doru’l-qazo Samarqandiy Mahmud Xo‘ja Behbud Xo‘jao‘g‘li. (E’tibor bering: “Behbudiy” emas “Behbud” deb yozilgan.)

“Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasi jami 25 moddadan iborat. Ushbu loyihaning 1-moddasidan 17-moddasigacha Chor Rossiyasi hukmi ostidagi ishlarga tegishli bo‘lsa, 18-25-moddalarida esa keng miqyosda erkinlik va siyosiy muxtoriyat talab qilingan. Shu oxirgi moddalarga ko‘z tashlaylik:

UMUM MAKTABLAR

18. Turkiston maktab va madrasalari hukumat nazoratidan ozod bo‘lsun.

19. Umumo‘rta va oliy maktablarga musulmonlardan komissiya tayinlansun. Rus harfi [alifbosi] musulmon millatiga jabr bo‘lmasun.

20. Har xil korxona, hibsxona va askarxonalargaki musulmon bordur, musulmon ruhoniysi tayinlansun.

SUV VA YERLAR XUSUSIDA

21. Turkistonga dunyoni har tarafidagi musulmonning yer olmoqg‘a haqqi bo‘lsun va inchunin, dunyoga Turkistonlilar-da sherik o‘lsunlar.

22. Sahro, biyobon, ko‘histon va shahar xalqini qadimdan beri o‘rtaga qo‘yub mushtarakan naf’lanib kelayotgan yoyloq, chashma, biysha, kon, ko‘l, marg‘zor, nahar va shularga o‘xshash sababi hayot va taraqqilari bo‘lg‘uchi nimarsalaridan naflanmakka mani’ bo‘lg‘uchi zakonlar lag‘v (bekor) bo‘lsun.

23. Nahar va katta va kichik arig‘ suvlarin taqsimi aholini ittifoqi va mashvarati ila bo‘lsun. Ushbu qonun loyihasi jami 25-moddadan iborat. Qayd: hozirgi Rus bosh mirobini taqsimi kayfisi aholiga ko‘p zarar kelturadur.



برله‌شکز بوتون دونیا یوقسوللره‌ری!

بوخارا خه‌لق شورالار جومهوریه‌تینك

(قانون اساسی سی)

ناشیری: مه‌رکه‌زی ایجرائیه قومیته‌سی.

بوخارا شورالار جومهوریه‌تینك

یالیگراف شو عبدسی حق نظر یاغی ده‌وادت مه‌طبعه‌سی.

Buxoro jumhuriyatining asosiy qonuni (Konstitutsiyasi), 1921.
Kitob nomi: *“Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyatining qonuni asosiysi”, deb yozilgan.*

24. Turkiston xalqi talab qilmag‘uncha Turkistonga muhojir yibarilmasun.

25. Turkiston shaharlari doxilindagi yerlar bu nizom vaz’ bo‘lguncha xoh muvaqqat va abadiy bo‘lsun, g‘ayri musulmonga berilmasun”.

Behbudiy bu loyihada faqat Chor Rossiyasi hududlaridagi Turkiston haqida so‘zlaydi. Rossiyaning vassalligi ostidagi Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlari esa bu loyihaga kiritilmagan. 1907-yildagi bu loyihada yuqorida aytib o‘tilgan moddalarda, ayniqsa, Turkistondagi maktablar va yer-suv masalalarida Chor Rossiyasi Dumasidan siyosiy muxtoriyatlar talab qilinayotgani aniqlanadi.

Bu muxtoriyat talablari Rossiya musulmon turkiy xalqlari o‘rtasida 1905–1917-yillar orasida turli yerlarda o‘tkazilgan musulmon xalqlarining yig‘ilish va qurultoylarida ham muhokama qilingan. Bu yig‘ilishlarning ayrimlarida Behbudiy hamda boshqa turkistonlik qozoq, o‘zbek, tojik, qirg‘iz, turkman vakillar ham qatnashganlar.

Bu yig‘ilishlar natijasida, 1917–1918-yillar orasida bir qator muxtoriyatlar e’lon qilina boshlandi: Qrim-tatar muxtor hukumati (1917), Turkiston muxtoriyati (1917), Alash-o‘rda muxtoriyati (1917), Butun Rusiya turk-tatar muxtoriyati (1918).


Bu muxtoriyatlardan tashqari uchta mustaqil jumhuriyat ham tuzildi: Ozarbayjon jumhuriyati (1918), Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyati (1920) va Xorazm xalq sho‘rolar jumhuriyati (1920). 1920-yilda qurilgan Buxoro va Xorazm mustaqil davlatlari nomida 1923-yilgacha ruscha “sovet” va “respublika” so‘zlari ishlatilmadi. Lekin 1923-yilda davlat nomidagi “sho‘rolar jumhuriyati” atamasi o‘rniga “sovet respublikasi” atamasi kiritildi, 1924-yilda bu ikki davlatning nomi yana bir marta quyidagicha o‘zgartirildi: Buxoro sovet sotsialistik respublikasi va Xorazm sovet sotsialistik respublikasi. 1924-yil oxirida esa, Buxoro va Xorazm davlatlari tugatilib, Markaziy Osiyo beshta sovet respublikasiga ajratildi.

Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyatining 1921- va 1922-yildagi Asosiy qonuni (Konstitutsiyasi) 3-moddasida shunday band mavjud:

“Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyati o‘zining bugungi sarhadlari (chegaralari) ichida birlashgan, bo‘linmayturgan erkli (mustaqil) davlat deb taniladir”.

(Bu so‘zlar Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyatining asosiy qonunidan o‘zgartirilmasdan aynan olindi).

Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan yozilib, Moskvadagi Davlat dumasi Musulmonlar fraksiyasiga 1907-yil noyabr oyida topshirilgan noyob “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasi ham Qrim, Qo‘qon, Orenburg va Ufada 1917–1918-yillardagi to‘rtta muxtoriyat hukumatlari hamda 1918–1920-yillarda uchta mustaqil davlat bo‘lgan Ozarbayjon, Buxoro va Xorazm jumhuriyatlarining e’lon etilishiga ta’sir o‘tkazgan muhim tarixiy hujjatdir. Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasidan o‘n yil keyin jadidlar rahbarligida to‘rtta muxtor hukumat, 11 va 13-yildan keyin esa uchta mustaqil davlat tuzildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy so‘zsiz I.G‘aspiralidan keyingi eng atoqli jadid yetakchi hisoblanadi. Behbudiyning fikr-g‘oyalari faqat Turkistondagina emas, balki Chor Rossiyasidagi barcha musulmon xalqlar yashaydigan hududlarda ham ulkan iz qoldirgan.



JADID MATBUOTI

“AL-ISLOH” MA’RIFATI

“Al-Isloh” jurnali Abdurahmon Sayyoh va Munavvar qori Abdurashidxonov tashabbusi, sa’y-harakati bilan 1915-yil 14-yanvarda Toshkent shahrining O‘rda dahasidagi G.Y.Yakovlev bosmaxonasida dunyo yuzini ko‘rdi. 1915-yilgi sonlari shu bosmaxonada, 1916, 1917, 1918-yillardagi sonlari O.A.Porsev litografiyasida chop etilgan. 1918-yilgi 5-soni Asqarxon Pahlavonov muharrirligida nashr qilingan. 1915, 1916, 1917-yildagilari har bir soni 32 sahifadan, 1918-yilgi sonlari 16 sahifadan iborat bo‘lib, bir oyda ikki martadan chiqqan.

“Al-Isloh”ning maqsad va vazifalari haqida jurnalning 1915-yilgi 2-sonida quyidagilar yozilgan: “Isloh”i zamon musulmonlarga diniy va dunyoviy xizmat qiladurg‘on majalladur. “Isloh” musulmonlarni Kitob va sunnat tarafiga chaqiradurgan majalladur. “Isloh” musulmonlarni nomashru’ ishlardan qutqaradurg‘on majalladur. “Isloh” musulmonlarni masalayi fiqh va e’tiqodi zaruriyatdan xabardor qiladurg‘on majalladur”.

Mazkur jurnalda diniy hamda dunyoviy mavzularga oid maqolalar bosilgan. Hamza, Saidahmad Vasliy, Karimbek Kamiy, Sidqiy Xondayliqiy, Is’hoqxon Ibrat, Tavallo Xo‘jamyorov, Mahmud Alizoda Toshkandiy va boshqa ijodiy faoliyati shu paytgacha deyarli o‘rganilmagan mualliflarning asarlari berib borilgan. Jurnal dunyoviy islohotchilik yo‘lini tutdi, jamiyatda ro‘y berayotgan bid’at, xurofotlarni tuzatishga katta ahamiyat qaratdi, milliy g‘oyalarning tarqalishida muhim vazifani bajardi. Jurnalning chiqishini jadid ziyolilari xursandchilik bilan kutib oldilar, uning maqsad va vazifalari, milliy matbuot ravnaqidagi o‘rni haqida she’rlar, ta’rixlar yozdilar.

“Al-Isloh” jurnalining 1915–1918-yillardagi sonlarida bosilgan 101 asardan 74 tasi she’riy, qolgan 27 tasi esa nasriy asarlardir. Adabiyotga doir materiallarni badiiy saviyasiga ko‘ra ikki turga ajratish mumkin: birinchisi, g‘oyaga birlamchi ahamiyat berilgan asarlar; ikkinchisi, yuksak badiiyat namunalari. Nazmiy asarlar ma’rifiy, diniy va ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi she’rlardan iborat, 74 ta she’rdan 51 tasi o‘zbekcha, 23 tasi esa fors-tojik tilida.

Nazmiy asarlarda bo‘lgani kabi nasrdagi ijod namunalarida ham badiiylikdan ko‘ra ijtimoiylik birinchi o‘rinda. Jurnalda, asosan, axloqiy mavzudagi va din tarixiga oid hikoyatlar, hikmatli so‘zlar, shuningdek, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidga doir maqolalar ham bosilgan. Jumladan, “Odil kishi” (1915, 2-son), “Qoyil qilmoq” (1915, 1-son), “Sa’y va ko‘shish” (1915, 1-son), “Muzokarai “Isloh” (1915, 4-son), “Usuli taraqqiy” (1915, 10-son), “Ulamoi salaf va tolibi ilm” (1915, 1-son) kabi axloqdan bahs yurituvchi hikoyatlar shular jumlasidandir. Masalan, “Usuli taraqqiy” hikoyatida madaniyatli inson ilmlilik, yovvoyi odam esa ilmsizlik timsolida ko‘rsatilgan, inson kamoloti va jamiyat ravnaqi uchun ma’rifatning zarurligi hayotiy misollar orqali tasvirlangan.

Jurnalda bosilgan nasriy asarlarning badiiy saviyasi yuqori bo‘lmasa-da, ular millatni uyg‘oqlikka chaqirishga, o‘sha zamonning dolzarb ijtimoiy muammolarini bartaraf etishga qaratilgani bilan ajralib turadi.

“Al-Isloh” jurnalida sof badiiy asarlar bilan birga, adabiyot nazariyasiga oid va adabiy-tanqidiy maqolalar ham chop etilgan. Shubhasiz, bu maqolalar ham adabiy jarayon, adabiy muhit tarixini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘taydi. Jumladan, “Adabiy shijoat nimada?” sarlavhali maqolada (1917-yil 5 – 6 – 11-sonlar) milliy adabiyotimizning XX asr boshlaridagi va o‘tgan asrlardagi ahvoli qiyosiy tahlil etilgan. Ibrohim Tohiriyning “Matbuot va isloh” (1915-yil, 5-son), “Matbuot va isloh baqiyasi” kabi adabiy-tanqidiy maqolalari (1915-yil, 6-son), “Sho‘ro” jurnalidan ko‘chirib bosilgan “Intiqodning (tanqid) shartlari” nomli adabiy tanqid nazariyasiga oid tadqiqot (1917-yil 1 – 2 – 3-sonlar) shular jumlasidandir. Zamonaviy adabiy tanqidning ilk kurtaklari bo‘lgan bu maqolalarda adabiy jarayon, yangi asarlar haqida fikr bildirilgan, asarlarning badiiy saviyasi, imlo va tilida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar haqida ham so‘z yuritilgan.

Jurnal sahifalarida ta’lim islohi mavzusida, ma’rifatga targ‘ib etuvchi turkum maqolalar, she’riy va nasriy asarlar yetakchilik qiladi. Jumladan, Mahmud Alizoda Toshkandiy (1916-yil, 3-son) “Milliy aloqa” she’rida yozadi:

Bizda ko‘p jahlu g‘azab, arbobi g‘aflat ichra biz,
Ma’rifat ilm-u funun aylab kirom isloh qil...
To‘y uchun sarf aylagaymiz necha yuz dinorlar,
Rusum deb isroflar ming-ming diram isloh qil.
Masjid-u maktab madoris sori qilg‘il nazar,
Onlari ilm-u odobda muntazam isloh qil.

Shoirning ushbu misralarida Turkiston xalqi hayotidagi qoloqlikni, ma’rifatsizlikni isloh qilish g‘oyasi mujassam.

Ma’rifat targ‘ibi, maktablar islohi Saidahmad Vasliy ijodida ham alohida o‘rin tutadi. Vasliy birgina diniy bilimlar bilan chegaralanib qolmay, dunyoviy bilimlarni ham o‘rganish zarurligini uqtiradi. Jaholatda qolgan “qora xalqning oqarishi”da birdan-bir vosita ma’rifat ekanini alohida ta’kidlaydi. Uning “Al-Isloh” jurnali 1915-yil 17-sonida chop etilgan “Islohi tadris haqinda” sarlavhali musaddasi bu jihatdan diqqatga molik.

She’rda dars islohi dinu shariat jismiga jon bag‘ishlashi, dars “ko‘ngillar ichra toza ruh hosil aylashi” haqidagi teran fikr betakror badiiyat bilan ifodalanadi. “Dars isloh o‘lmasa, o‘lmas biza fayzu futuh”, deya o‘sha vaqtda Turkistonda ta’lim tizimi zamon talablariga javob bermay qolganidan iztirob chekadi. Ayniqsa, shoirning “Bu zamonda olim o‘lmoqg‘a kerakdur umru Nuh” degan so‘zlari bu iztirobning naqadar teranligini ko‘rsatadi. Vasliy kuyinish bilangina cheklanmaydi. Bu holatdan chiqish choralarini izlaydi va “Osmoni ilm uchundir nardbon islohi dars” degan xulosaga keladi.


الاصلاح
جلد بیکنجی (۵) سنه ثانیه ۱۳۳۲ نومره ۱۹۱۶ غره برنجی نمره (۱)
(اصلاح مندرجاتی)

Boshqa jadid bobolarimiz kabi Vasliy Samarqandiy ham Turkistonning o‘sha davrdagi holatiga tanqidiy nazar bilan qaraydi. “Ishlari darsxonalarda “iyob ila zihob” – kelmagu ketmakdangina iborat bo‘lgan, asosiy vazifasini – bilmagu bildirmakni unutgan tolibi ilmlarni ko‘rib, ularning holiga achinadi. “Aylasak islohi tadris, ey guruhi mustatob, Bo‘lmas erdi holati avlodimiz bo‘yla xarob”, deya taassuf qiladi. Jaholatdan najot topmoqning yagona chorasi darsni – ta’lim tizimini isloh qilish ekanini ta’kidlaydi. Aytish joizki, “Al-Isloh” jurnalida ta’lim islohi masalasida faol eshtirok etgan muallif Vasliydir. Jurnalning 1915-yil 13-sonida “Himmat ur-rajo” maqolasida maktab va madrasalarning qurilish loyihasidan tortib, dars xonalarining ichki jihoz, uskunalarigacha, dars necha yil bo‘lishi kerak, bir kunda necha fan o‘qitilishi zarur, talabalarning darslarni o‘zlashtirishi va imtihon olish usuli qanday bo‘lmog‘i lozimligi haqida batafsil to‘xtaladi.

Bu masalalarga boshqa ziyolilar ham befarq qaragan emas. Ular ham muhokama va munozarada faol ishtirok etgan. Buxorolik Ziyovuddin qori jurnalning 1915-yil 17-sonidagi “Insonning bir necha vazifasi va saodati” sarlavhali maqolasida tahsil o‘n besh yilga mo‘ljallangan bo‘limni, bir yilda to‘qqiz oy o‘qish, haftasiga besh kun, har kuni ikki fan o‘qitilishi lozimligini ta’kidlaydi. Iqtidorli talabalar ta’limni o‘n ikki yilda yakunlashini uqtiradi.

Maqola yakunida Turkiston ulamolariga xitob qilib, maktab va madrasalarning ayanchli ahvoliga kuyunib, bong uradi: “Ey! Ustoz va ulamolar, endi vaqtni zoye’ etmangiz, bizlarning va o‘zlaringizning moziy va istiqbolimizni tushuningiz: kim eduk, na o‘lduk, na o‘lajag‘miz, fikr etingiz! Vatan va millat avlodining ta’lim-tarbiyati sizlarning hamiyat va g‘ayratingizg‘a bog‘lidur”.

Ta’kidlash joizki, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi masalasida ulamolarning fikrlari turlicha bo‘lgan. Ayrimlari eski usul barobarida yangi usul jadid maktablarining ham tarafdori edi. Ayrimlari esa jadid maktablari haqida tanqidiy fikr bildirgan. Bu toifa Yevropa madaniyati musulmon bolalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishidan saqlanmoq zarur, deb hisoblagan. Saidahmad Vasliy “Sadoi Farg‘ona” gazetasida chop etilgan “Usuli jadid” maqolasida yangi usul eski o‘qitish tizimidan afzal ekanligini sodda va tushunarli qilib quyidagicha bayon etadi: “Emdi yangi tartibda o‘qitmoqni ma’nosi shulki, maktabga kirgan bolaga saboq berish bilan bir vaqtda harflarni ham yozib ko‘rsatur. Yangi tartibda o‘qigan bola 4-5 oyda o‘qimoq va yozmoqni o‘rganur... ”.

Vasliy ushbu maqolasida 10-12 yil o‘qigan mullalar eng muhim ilmlardan bexabar qolganliklarini ta’kidlash bilan birga, ularning madrasalarda o‘rgangan bilimlari amaliy hayot ehtiyojlaridan juda uzoq ekani hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmay, amaliyotdan ajralib qolgani haqida muhim ijtimoiy-siyosiy masalani ham ilgari surgan edi.

Umuman, “Al-Isloh” jurnali milliy uyg‘onish davrining boshqa nashrlari qatori millatni asriy jaholat girdobidan olib chiqish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga ko‘tarishdek zamonning eng muhim masalalari yo‘lida xizmat qildi.

Qo‘ldosh PARDAYEV,
filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti
professori

TABDIL

FIKR TARBIYASI



Said AHRORIY

Fikr tarbiyasi – umumiy tarbiyaning eng ahamiyatli bo‘limidir...

Lekin har holda badan tarbiyasidan keyingi galda turadir. Kishi degan bir tosh yokim bir yog‘och singari yolg‘iz badan, ya’ni moddiy yoqdan iborat emas. O‘ylaguvchi ham tushunchali bo‘lishi uning birda fikriy borliq egasi ekanini ko‘rsatadi. Hayvoniy hayoti bo‘lg‘oni kabi fikriy bir hayoti ham bor demakdir. Mana shunga ko‘ra, fikr tarbiyasining ham kerakligi aniqlashib qoladir.

Har narsaning kun va zamon o‘tkan sayin tugallanishi va ko‘tarilib ilgari borishi har tariqa bilan sobit bo‘lg‘on bir haqiqatdir. Ayniqsa, zamonimizda turlik fanlarning taraqqiy qilishi va hunarlarning texnika kuchi orqali tugal bo‘lishi – tarbiya usulining ham tuzatilishini ijob etkandir...

Fikr tarbiyasining qancha ahamiyatli ekani ustida har kimning ayrim bir fikri bordir. Har kim bilgining, es va ziyraklikning ahamiyatini taqdir etadir, lekin tarixiy tekshirishlarni ko‘z oldig‘a ketirib bu to‘g‘rida bir mulohaza bayon qilmoq kerak bo‘lg‘onda qisqacha aytib bo‘ladirkim, bir elning baxtiyorlig‘i ham ilgari borib bormag‘onlig‘ini uning fikr tarbiyasi yog‘idan qaysi darajaga yetkani bilan o‘lchab tushunmak mumkindir.

Madaniyat tarixining ko‘rsatishiga qarag‘onda, butunlik, to‘qliq va baxtiyorliq degan narsalar bilim bilan fikr tarbiyasi nisbatida bo‘ladir. Hatto bu aytilgan narsalar butunlay bilimga va fikr tarbiyasiga bog‘lanib qolg‘ondir.

Tarix bu da’vosig‘a bizni ko‘ndirmak uchun ko‘zimiz oldig‘a dunyoning butun o‘zgarishlarini, madaniyat asarlarini va ilmiy taraqqiyotni qator tizib yasav tortadir.

Bugun dunyo matbuoti va bug‘ bilan ishlagan mashinalarig‘ag‘ina ko‘z solg‘onda ham bu da’voning to‘g‘rilig‘i anglashiladir...

Kimyo bilimi taraqqiy etmaganida, hozirda ham yetti yuz yil ilgarigi chirik fikrlar hokim bo‘lg‘anda – bu asrda ham dunyo allomalari misdan tilla yasamoqchi (!) bo‘lib umrlarini mumkin bo‘lmag‘an narsalar bilan o‘tkaza berar edilar. Fikr tarbiyasining kerak ekani, bilim o‘rganish va fanni tekshirishlarning zehnini qanday ulug‘ tilak va armonlarga yetirganini tushuntirmak uchun nima deyilsa ozdir.

Fikr tarbiyasida tub tilagimiz bolalarg‘a kelgusida, ya’ni bo‘yiga yetib ishga va turmushga aralashg‘anlarida boshqalari tegishli bo‘lg‘on har xil vazifalarni yaxshilab bajaraturg‘on bir qobiliyat bag‘ishlamoq va undan keyin o‘ziga va kishilik dunyosiga yaraydurg‘on kashfiyot va ixtirog‘a xizmat etish yo‘lida muvaffaq bo‘la olishini mumkin qilg‘uvchi bir iste’dod bermakdir. Bu esa, zehnning butun bo‘lishi, aqliy bilimning malakalarining orta berishi bilangina mumkindir. Fikr tarbiyasining bu xili fanniy bilgi tarbiyasidir. Lekin aloqasining tevaragi juda keng bo‘lgan fikr tarbiyasining xizmati bundang‘ina iborat emasdir. Balkim go‘zal san’atlar (sanoyi nafisa) ham bu qatorg‘a kirib katta bir o‘rin tutadirkim, unga chinakam ahamiyat berib qaramoq kerakdir.

Chetdan qarag‘ang‘a ko‘ra go‘zal san’atlar tarbiyasi ilmdir, fanlar tarbiyasi oldida bir ziynatdan iboratdir: bir uy yokim bir kimning kerakligi oldida bir belbog‘, uzuk, bir soyabon singari...

Go‘zal san’atlarning axloqiy tarbiyaga xizmat etguvchi ekanligini ilgari surganlar ham bor. Bular chekdan oshirib mubolag‘a etganlar. Go‘zal san’atlarning axloq tarbiyasiga ta’siri yo‘q emas. Lekin bularga axloqning zaruriy bir bog‘liqlig‘i va tabiiy bir aloqasi yo‘qdir...

Axloq tarbiyasi ayrim bir fandir. Hamda musiqa, rasm, teatr va haykaltaroshlikdan ko‘proq: ruh bilimi ham, tashrih – sharhlash bilimi asosiga qurilg‘andir. Go‘zal san’atlar tarbiyasi kerak va ahamiyatli bo‘lsa bu uning axloqqa asosiy ravishda xizmat etguvchi ekanligidan emas, balkim kishining fitratida yashirinib yotqan teran va chin tuyg‘ularning yaxshi ravishda tugallanishiga qurol bo‘lib, hayotimizg‘a nash’a bag‘ishlag‘uvchi asarlarning ham yuzaga kelishiga vosita bo‘lg‘ani uchundir...

Fan foydali narsani topadi. Go‘zal san’atlar esa, doimo go‘zallikni izlaydir va u topilg‘an narsani ozmi-ko‘pmi go‘zallashtirishga tirishadir. Mana shuning uchun go‘zal san’atlarni foydadan keyin o‘ylamak to‘g‘ri keladir. Lekin har qanday bo‘lg‘anda bukun madaniy xalqlar uchungina emas, hatto madaniylashmagan ellar uchun ham eng zarur va kerakli ma’naviy ehtiyojlardandir. Shuning uchun na bir sinf, na bir el va na bir kishi bu go‘zal san’atlar orqali tarbiya bu o‘rtada rohat etishimizga va baxtli bo‘lishimizga xizmat etadir. Shunday bo‘lsa bu ham kerakdir.

Shu umumiy mulohazaga yana bir narsani qo‘shib o‘tishga ruxsat beringiz.

Onalik vazifalarining yaxshilab bajarilishi uchun onalarning fikr tarbiyasiga qancha yo‘qsul ekanligini isbot etmak yo‘lida ba’zi sinoqlardan bir-ikki narsani aytmak ham foydasiz bo‘lmas.

Bola o‘stirish, uning sog‘lig‘ini saqlash, kasal bo‘lganda unga yaxshi qarash kabi ishlar, albatta, ozmi-ko‘pmi tugal va to‘g‘ri bilgi egasi bo‘lishga bog‘liqdir. Ehtimolkim, har kim bu fikrda emas. Lekin men bu tushunchamdan sira ayrilmayman. Ko‘p onalarni taniymankim, bular bolalarning og‘rib yotishlariga va yokim ming xil falokatga yo‘liqishlariga o‘zlari bilmasdan sabab bo‘ladilar. Bolaga qarash shunday xizmatdirkim, qat’iy bilgi bilan mumkindir. Lekin bu bilgilarning kitoblardangina o‘rganilishi lozim kelmas. Ko‘p onalarimizkim, o‘zlari o‘qimoq bilmasalar ham bola boqishda juda yengil va lekin asru to‘g‘ri bilgilari bor. Buning teskarisiga birda yot tilda gapira olaturg‘on, maktab bitirgan, musiqiy va qo‘l ishiga o‘rgangan ko‘p onalar ham bordirkim, bolaning nima bilan ozuqlanishini, kunda necha soat uxlashini bilmaylar...

Yolg‘iz fikr tarbiyasining qancha kerakli va ahamiyatli ekanligi to‘g‘risida ko‘rsatilgan misollar qatorida onalik vazifalarini ham bu tarbiyaning tevaragi ichida ekanligini ko‘rsatib o‘tmakchi bo‘ldim...

Taraqqiy etganlardan juda chetda qolib yotmoq yomondir, o‘lim bilan tengdir. Buni hamma vaqt esda tutmoq kerak. Bu haqiqatni sira esdan chiqarmag‘an, ijobig‘a ko‘ra tirishg‘an va uring‘an kishi o‘zi uchungina emas, balki o‘z xalqi, o‘z sinfi uchun eng unumli ishlar ko‘rishga muvaffaq bo‘ladir. Negakim, vazifashunoslik va tirishqoqlig‘i orqasida ilgari borib yuqori ko‘tarilishga kuchi yetadir.

Bir elning taraqqiysi, madaniylashmagi, baxtiyorlig‘i u elni tashkil etgan shaxslarning bilimli, kuchli, g‘ayratli va ishsevar bo‘lishig‘a bog‘liqdir. Bu haqiqat har yoqdan to‘g‘ridir. Bu kamolning darajasi ozmi-ko‘pmi ahvolning ta’siridan qutula olmaslik barobarida ko‘p yoqlardan fikr tarbiyasiga qattiq bog‘langan bo‘lib, usiz mumkin emasdir.

Fikr tarbiyasida eng ilgari borg‘on yurtlar, albatta, eng baxtli yoshlardandir va tabiatning u mamlakatga bag‘ishlangan boylik manbalaridan foydalanmoq yo‘llarini topadirlar.

Negakim, Afrikada fikr tarbiyasidan butunlay mahrum bo‘lg‘on yovvoyi ellar bordir. Yerda o‘zlaricha o‘sgan o‘tlarni yeb safolana umr o‘tkazadilar. Yer yuzining bir necha gaz tegrasida bo‘lg‘on xazinalaridan foydalanmoq nari tursin, bunday bir foydaning borlig‘ini xayollaridan o‘tkaza olmaydilar.

Qisqasi shudirkim, fikr tarbiyasi madaniyatimiz, ya’ni baxtiyorlig‘imiz uchun eng boshda ahamiyatli va kerak bo‘lg‘on shartlardan birisidir. Bu to‘g‘rida har qancha gapirilsa va yozilsa arziydir.

“Maorif va o‘qituvchi” jurnali,
1925-yil, iyul.

MUALLIF HAQIDA:

Jamoat arbobi, jurnalist Said Ahroriy (taniqli tarjimon va jurnalist Xolida Ahrorovaning otasi) asli xo‘jandlik bo‘lib, Turkiston ruslar tomonidan zabt etilgach, ota-onasi bilan Makkaga, undan Turkiyaning Istanbul shahriga ko‘chib boradi. 1912-yili Ismoil G‘aspirali va Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan uchrashadi.

1917-yil Fevral inqilobidan keyin Toshkentga kelib, maktablarda dars bera boshlaydi. Uning “Buxoro jo‘g‘rofiyasi” (Yoqubov bilan hamkorlikda, 1923), “Xotin-qizlarga tortiq” (1924), “O‘zbek atamalari lug‘ati” (1926) nomli kitoblari chop etilgan. 1930-yili “Milliy ittihod” tashkilotiga a’zolikda ayblanib hibsga olingan. 1989-yilda oqlangan.

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda)

QATAG‘ON QURBONLARI

Xolbotirov Sulton Mahmud – 1890-yili Andijon shahrida katta yer egasi oilasida tug‘ilgan, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi, 1934-yili rayon xalq ta’limi bo‘limi ishini izdan chiqargani uchun VKP(b) safidan o‘chirilgan. Kolxozda ishlayotgan vaqtda hibsga olingan.

Sovet hokimiyatiga qarshi dushman kayfiyatida bo‘lgani, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotiga yangi a’zolarni tortishda, kolxozni izdan chiqarish uchun targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Xolbotirov Sulton Maqsud – 1888-yili Andijon shahrida katta yer egasi oilasida tug‘ilgan. Katta ariq oqsoqoli. Inqilobga qadar politsiyada ishlagan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti va Andijon shahar dumasi a’zosi bo‘lgan. 1919-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan.

Aksilinqilobiy tashkilotning faol a’zosi sifatida bosmachilar to‘dasi bilan aloqada bo‘lib, ularni qurol bilan ta’minlaganlikda, Sovet hokimiyatiga qarshi targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlari F.Xo‘jayev va A.Karimov bilan aloqada bo‘lganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

G‘afurov Abduqodir – 1897-yili Andijon shahrida yirik paxta sotuvchi oilasida tug‘ilgan. Volost boshqaruvchisi, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi. O‘quvchi-yoshlar orasida aksilinqilobiy varaqalar tarqatgan, Mirza Tog‘ay qo‘rboshi bilan aloqada bo‘lgan, qamoqqa olish vaqtida kolxozda hisobchilik qilgan.

Aksilinqilobiy guruh yig‘inlarida faol ishtirok etganlikda, mag‘lubiyatchilik mazmunida aksilinqilobiy targ‘ibotni doimiy ravishda olib borganlikda, mehnatkashlar ahvoli to‘g‘risida tuhmatlar tarqatganlikda, xorijga chiqib ketish kayfiyatini ifodalaganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan ayblanib, 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Musin Mahmudbek – 1889-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Politsiya amaldorining o‘g‘li. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borish uchun qurolli guruhlarni tashkil etishning yetakchi tashkilotchilaridan biri. Qamoqqa olish paytida bozorkom vazifasida ishlagan.

Sovet hokimiyatiga qarshi salbiy munosabatda bo‘lgan, 1923-yili militsiya boshlig‘i bo‘lib ishlagan. Bosmachi to‘dalarini qurol va o‘q dori bilan ta’minlab turganlikda, ruslarga qarshi oxirigacha kurash olib borish zarurligi haqida o‘z fikrini aytganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Hakimov Ahmadjon – 1903-yili Andijon shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan. Aksilinqilobiy tashkilot a’zosi. Qamoqqa olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan.

“Milliy ittihod” tashkiloti a’zolari bilan aloqada bo‘lib turgan. Tashkilotdan o‘qish uchun Bokuga vakillarni yuborib turgan. Sovet hukumatining kolxozlarni mustahkamlash bo‘yicha olib borgan tadbirlariga qarshi chiqqan. Xalq dushmanlari – Kamenev va Zinovyevlarni muhokama qilinishlariga qarshi turganlikda, inqilobgacha bo‘lgan davrni maqtaganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi, 67-moddasi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Shodmonov Saidxon – 1903-yili Marg‘ilon shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan. 1925-yili Lenin rayonida aksilinqilobiy tashkilot hay’ati a’zosi bo‘lgan.

VKP(b) va Sovet hokimiyati siyosatiga dushmanlikda, A.Karimov, F.Xo‘jayevni xalq dushmani sifatida fosh etilishiga achinish bildirganlikda, xalq dushmanlari topshirig‘iga muvofiq irrigatsiya bo‘yicha amalda zararkunandalik qilganlikda, o‘zida noqonuniy tarzda 2 ta revolver saqlaganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Mullaboyev Mirsoat – 1890-yili Toshkent shahrida pudratchi oilasida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi. Dushman unsurlarni kaltaklaganlarni himoya qilgani uchun 2 marta sudga tortilgan. VKP(b)dan o‘chirilgan, mahalliy xo‘jalik bo‘limi ishini izdan chiqargan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan.

Millatchi, aksilinqilobiy unsurlar bilan aloqada bo‘lgani, VKP(b)ga, davlat siyosatga bo‘hton qilgani, Sovet hokimiyatiga qarshi dushmanchilik kayfiyatida bo‘lgani, aholi orasida norozilik keltirib chiqargani, paxta tayyorlashda sabotaj uyushtirgani uchun ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi, 67-modda bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Hakimov Shukur – 1907-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Poyabzal sotuvchi oilasidan. 1927-yili Farg‘ona pedagogika texnikumidagi aksilinqilobiy guruh a’zosi, aksilinqilobiy gazeta chiqarishda ishtirok etgan, qatag‘on qilinishdan qochib ketgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan.

“Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining a’zosi. Xalq maorifi bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlarga qarshilik ko‘rsatgan, kasaba uyushmalari majlislarida xalq dushmanlarini fosh etmaslikka chaqirgan, aksilinqilobiy targ‘ibot bilan shug‘ullanganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Sultonov Rasuljon – 1905-yili Qo‘qon shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan, hibsga olingan vaqtda teatrda ishlagan.

“Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zolari bilan aloqa o‘rnatib turgan. Sotsialistik qurilishdagi muvaffaqiyatlar to‘g‘risidagi VKP(b) siyosatiga qarshi bo‘hton tarqatganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim
(Davomi kelgusi sonda).

OG‘RIQ

PROKUROR OTALARNI NEGA OGOHLIKKA CHAQIRDI?

Yoxud sirdaryolik 12 nafar o‘quvchi qiz ning qismati

Xalqimiz azaldan biror gap yoki hikmatni aytsa, bilib aytgan, topib aytgan. Bugun barcha sharoit va imkoniyatlar mavjud. Ulardan unumli va samarali foydalanmay, ijtimoiy illatlarga berilib, ularning yanada ko‘payishiga sabab bo‘layotganlar uchun “Eshakning yuki yengil bo‘lsa, yotoq bo‘ladi” purhikmati mos keladi.

Biz bu jihatni yoshlarimizning aksariyati ilm olishga qunt qilmayotganligida, ba’zi kattalar esa “menga nima, senga nima” qabilida ish tutayotganligida kuzatamiz. Sirdaryo viloyati hokimligi, viloyat prokuraturasi, viloyat Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi boshqarmasi tomonidan viloyatda mavjud 314 ta umumta’lim maktabi o‘quvchilarining otalari uchun “ZOOM” platformasi orqali yig‘ilish o‘tkazildi.



Ushbu yig‘ilishda Sirdaryo viloyati prokurori Savid Imatov tomonidan berilgan ma’lumotlar har bir kishini yanada sergaklikka, ogohlikka chaqiradi.

– Sirdaryo viloyatida o‘tgan 2023-yil mobaynida ajrashgan 1 500 nafardan ortiq oiladan 1 000 nafardan ortiq bolalar yo otasiz yoki onasiz qolgan;

77 nafar voyaga yetmaganlar orasida sodir etilgan jinoyatlarning 43 nafari maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan. Bu jinoyatlarning aksariyatini o‘g‘irlik, bezorilik, tan jarohati yetkazish, odam o‘ldirish va boshqa jinoyatlar tashkil etmoqda.

Voyaga yetmaganlarning 630 nafari huquqbuzarlik sodir etgan. Shundan 168 nafari tegishli hujjatlarsiz avtomobil vositalarini boshqargan;

29 nafar ota-onaga nisbatan otalik, onalik huquqidan mahrum etish bo‘yicha sudga da’vo arizasi kiritilgan;

voyaga yetmagan farzandlariga aliment to‘lashdan bo‘yin tovlagan 459 nafar ota ma’muriy va 52 nafari jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmagan 3 837 nafar ota-ona ma’muriy javobgarlikka tortilgan;

Nazorat tadbirlari davomida, maktab o‘quvchilari yonida 48 ta sovuq qurollar (!) mavjudligi aniqlangan.

O‘rganishlar jarayonida shu narsa oydinlashdiki, viloyat maktablarida haftasiga 20 000 nafardan ortiq o‘quvchilar darslarga qatnashmaydi. Bu ko‘rsatkich bir kunda 3 200 nafardan ortiqni tashkil etsa, 1 000 nafardan ortig‘i sababsiz. 87 nafar o‘quvchi darslarga surunkali qatnashmaydi. 215 nafar o‘quvchi deviant xulqqa ega. 24 nafar o‘quvchi Misr davlatiga diniy ta’lim olish uchun ketgan. 17 nafar voyaga yetmaganlar orasida suisid holati sodir etilgan. 12 nafar o‘quvchi qiz ona bo‘lgan. Ularning 2 nafari 9-sinf, 10 nafari 10-sinf o‘quvchilaridir.

Bir millionga yaqin fuqarolarga ega viloyatda voyaga yetmaganlar o‘rtasida shuncha jinoyat, huquqbuzarlik, nomusga tegish, suisid kabi noxush holatlar bo‘lsa.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 5-fevral kuni “2024-yilda ta’lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu haqda aytib o‘tgan edi.

Bu og‘riqli masala yuzasidan kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar, vazifalarni o‘rtaga tashlagan edi.

– So‘rov maktab direktoridan bo‘layapti, lekin Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiyaga mas’ul hokimlar har hafta bitta maktabga borib, o‘quvchilarning sharoiti va tarbiyasi bilan shug‘ullanmayapti.

Shu munosabat bilan maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazilishi belgilandi...

Farzand tarbiyasi, ta’limi bilan jiddiy shug‘ullanish bizga ota meros emasmi? Voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar va jinoyatlar soni, turi yildan-yilga oshib borayotganligi jamiyatimiz uchun jiddiy muammodir. Yoki voyaga yetmagan maktab o‘quvchi qizlarining nomusini toptash, ularning kelajagiga raxna solishdek jirkanch holatning tobora ko‘payib borayotganligi millat uchun achinarli emas, ayanchli holdir. Hali ham yuqoridagi ko‘rsatkichlar aniqlangan holatlardir. Odamlardan istihola qilib, el-xalq nima deydi, deb yashirib, yashirinib yurganlar qancha?

Ta’lim-tarbiya, ma’naviy rivojlanish faqat insonga berilgan ulug‘ ne’mat. Shu sababdan yaxshilik va ezgulik jihatdan kamolotga yuz tutishda yoshlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishimiz, namuna bo‘lishimiz lozim. Ularning ta’limi, tarbiyasini birlamchi, asosiy masala deb qaramas ekanmiz, har qancha chiranmaylik, ko‘zlagan maqsadlarimizga erisha olmaymiz.

Bahrom BOYMURODOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi.
“Hurriyat” gazetasi,
2024-yil 21-fevral, № 8-son

TILBILIM

UZUNQULOQ GAPLAR

“Uzunquloq gaplarga ko‘ra”, “odamlar orasida uzunquloq gaplar yuribdi”. Qanday qilib gap uzunquloq bo‘lishi mumkin? Deylik, biron hayvonga nisbatan “uzunquloq” desa tushunarli, lekin gapning uzunquloq bo‘lishi g‘alati.

Gap shundaki, bu yerda “uzun” – hozirgi tilimizdagi uzunlikni bildiruvchi “uzun” emas. Qadimgi turkiyda unga shakldosh yana bir “uzun” so‘zi bo‘lib – “g‘iybat” ma’nosini bildirgan. “G‘iybatchi” esa – “uzunchы” deyilgan. “Qutadg‘u bilig”dan o‘qiymiz:

Uzunchы kishikə qatыlma yыra,
Uzunchы tilində kүyər ot kər-ə.

Ma’nosi: G‘iybatchi kishiga yaqinlashma, yiroqlash, G‘iybatchi tilida o‘t yonadi, ko‘r.

Uzundыn qopar ul ajun bulg‘aqы
Uzunchы bashын kes ey ersig aqы.

Ma’nosi: Dunyoning bulg‘anchiq fisqu fasodlari g‘iybatdan chiqadi, G‘iybatchining boshini kes, ey mard saxiy.

Demak, “uzun gap” – bu “uzundan-uzun cho‘zilgan” emas, balki “g‘iybat gap” ekan. G‘iybat esa – kimningdir orqasidan gapirish. Shu ma’noda bu so‘z, bizningcha, “orqa, ket” ma’nosidagi qadimgi “uzu” so‘zidan yasalgan bo‘lishi mumkin. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”da “uzu”ni shunday izohlaydi: “uzu – orqa, ket. Mən anïң uzu kəldim – men uning orqasidan keldim”. Ya’ni “uzun” so‘zi mazkur “uzu”ga qadimgi vosita kelishigi qo‘shimchasi “-in” ni qo‘shib yasalgan bo‘lishi mumkin (Misol: qadimgi turkiy so‘z “terk” – “tez” ma’nosini bildiradi. “terk+in” esa – "tezlik bilan", “terkin kel” – “tezlik bilan kel”. Shu kabi: “uzu+in” – “uzun” – “orqasidan” (gapirish) bo‘lishi mumkin.

Bizningcha, “uzunquloq”ning “-qulog‘”i ham eshitish organi – “quloq” ma’nosida emas. Gap shundaki, “quloq” ham ba’zi turkiy lahjalarda ko‘chma ma’noda: “mish-mish, ovoza, gap-so‘z, g‘iybat” ma’nolarini bildiradi.

Shunday qilib, “uzunquloq gaplar” iborasini: “g‘iybat, mish-mish, og‘izdan-og‘izga o‘tgan gaplar”, deb tushunish mumkin.

Abduvohid HAYIT

HUJJATLI QISSA

JIZZAX QO‘ZG‘OLONI

Mirzo Qo‘qonboy ABDUXOLIQOV

(Boshlanishi o‘tgan sonda).

Agar bu musulmon xristianlikni qabul qilsa, Russiya mujigi (dehqoni) qatorida bir qancha imtiyozga ega bo‘lardi. Shu tariqa chor hukumati musulmonlarni xristian qilmoqchi edi.

Tabiiyki, yildan yilga mahalliy aholining soni oshib borar, ammo aholi soniga nisbatan yerlari kamayib borardi. Buning ustiga ruslar mahalliylardan yer sotib olib, katta yer egasi bo‘lardilar.

Posyolka va posyolka tipidagi qishloqlarning ko‘payishi misolida ham bunga ishonch hosil qilish mumkin.

1904-yilda Uzgandga borgan edim. O‘sha payt Uzgand sharqida “Mirza aka” degan qishloq bo‘lardi. Uzganddan taxminan 5-6 kilometr uzoqlikda joylashgan bu maskan atroflari qirlar bilan o‘ralgan bir vodiy edi, zilol suvlari sharqirab oqadigan bu kichik qishloqning yerlari hosildor edi. Bu yerlar hosildor bo‘lganligidan Namangan uyezdining Olmos qishlog‘i ahli kelib tamaki ekishardi. Ma’lumki, tamaki ekiladigan yerlarga ko‘p o‘g‘it beriladi, lekin bu qishloqning yerlariga o‘g‘itsiz ekilgan tamakilar ham gurkirab ketardi.

Koshg‘arning yo‘li ana shu yerdan boshlanib, Koshg‘argacha tog‘ tizmalari ulanib ketardi. Tyanshan tog‘ining chekka bir go‘shasi bo‘lgan bu Mirza aka qishlog‘ida o‘zbeklar va qirg‘izlar istiqomat qilishardi. Men u yerga borganimda o‘ntacha rus xonadoni o‘sha qishloqdan bir tanob, yarim tanob yer sotib olib, uy qurib, yerlariga bug‘doy, arpa, kunjut ekishardi.

Kulrang tuproqli bu yerlarda ekilgan bug‘doy, arpa, kunjutzorlarga oralasangiz, hosilning mo‘l va baravjligidan odam ko‘rinmay ketardi. Tepaliklarda ekilgan bodring, qovun, tarvuzlarni ko‘rib aqlingiz shoshadi; umrimda bunaqa hosildor yerni ko‘rmaganman. Hosil ekilmay qolgan, qarovsiz yerlarda har xil gulu o‘tlar pechu tob bo‘lib gurkirab o‘sgandiki, mollar uchun tayyor yemish edi, ovora bo‘lib mol boqib yurishga hojat yo‘q. Bu go‘sha asalchilik uchun ham qulay joy bo‘lib, har bir qutisidan 3-4 pud asal olinardi.

Tog‘ yon bag‘irlarida joylashgan bu maskanning bir cheti Koshg‘arga, ikkinchi tomoni Yettisuv viloyatiga ulanardi.

Oradan o‘n yil o‘tdi. 1914-yil eshitdimki, Mirza aka darasidagi yerlar to‘lig‘incha muhojirlar qo‘liga o‘tib, u joyda 400-500 xonadonli posyolkalar qurilgan. Muhojirlar shunday boyib ketganlarki, qoramol, ot, qo‘ylarining hisobi yo‘q. Tub aholi esa, o‘z yerida kasodu xonavayron bo‘lib, har tomonga tarqab ketishga majbur bo‘lgan. O‘sha muhojirlar bir ot-arava bilan kelib, qamish uylarda yashab, qotgan qora non yeb, bir yil ichida bug‘doydan keladigan daromad hisobiga o‘zlarini tiklab, ikki-uch yilda boy-badavlat bo‘lib ketdilar.

Men Mirza aka qishlog‘iga borgan yilim yangi kelib o‘rnashgan bir o‘rusning uyiga kirdim. Nahorlik payti ekan, dasturxonda qora non va yog‘ochdan yasalgan tovoqqa o‘xshagan narsada qanaqadir ovqat bor edi. Meni ham dasturxonga taklif qildilar. Sho‘rva deb o‘ylagan narsam — qoshiq solib ko‘rsam olichaning suvi ekan. O‘sha paytlari kelgan muhojirlar juda kambag‘al edi. Lekin keyingi yillarda go‘shtsiz ovqat yemaydigan bo‘lib ketishdi.

Mahalliylarni o‘z yerlarini sotishga majbur qiladigan sabablardan biri — yer solig‘i nihoyatda katta edi. Muhojirlar esa soliq to‘lamasdilar. Soliqni to‘lashga qurbi yetmaganlar qarzga bankdan yo sudxo‘rlardan pul olib, soliqqa berishardi. Biroq oxir-oqibat yerlari sotilib, xonavayron bo‘lardi. Chor hukumati mahalliylarni butunlay unutib yuborgandi-yu, lekin soliq olish paytlari, ariq qazish, yo‘l chiqarish kezlari tez-tez eslab turardi.

Muhojirlar soliq to‘lamagani holda o‘z yeri uchun ham ariq qazimasdi, yo‘l chiqarish ishlariga ham qatnashmasdi. Bu ham yetmaganday hukumatdan yana yordam puli olib turardi. Hukumat muhojirlar uchun maktablar, bog‘chalar, kasalxonalar qurib berardiki, bularning bari mahalliylarning hamyoni hisobidan edi.

Mahalliy aholi to‘g‘ridan-to‘g‘ri olti xil soliq to‘lardi. Shulardan biri “Zemskiy sbor” deb atalib, sarflanadigan joyiga qarab 20 foizdan 35 foizgacha olinardi. Ammo ruslarning maktablari, bog‘chalari, kasalxonalari qurilishiga sarflanardi.

Xulosa shuki, chor hukumatining bunday siyosati bilan ruslar xoh shaharda yashasin, xoh qishloqda — yildan yilga boyib borardilar. Ularning ichida nainki bir kambag‘al, hatto o‘rtaholni ham topib bo‘lmasdi, barchalari 4-5 yil mobaynida badavlat bo‘lib ketgandilar.

To‘g‘ri, mahalliy aholining ichida ham boy-badavlatlar topilardi, lekin bu aholining 4-5 foizini tashkil qilardi. Ular ham hukumat yo yevropalikni eshitsa, o‘zlarini chekkaroqqa olardi. Shaharlarda mayxona, qimorxona, fohishaxona, bachchaxona, ko‘knorixonalar mavjud bo‘lib, biz turkistonliklarga ana shular “maktab” vazifasini o‘tardi.

Xulosa shuki, chorizm Turkistonda 50 yil hukm yuritsa-da, aholini o‘ziga moyil qilolmadi, bil’aks, qilgan va amalga joriy qilayotgan ishlari bilan mehnatkash xalqni o‘ziga dushman qildi. Tatarlarning “O‘rusdan otang bo‘lsun, yoningda boltang bo‘lsun” maqoli ko‘p tillarga tarjima bo‘lib ketgandi.

Aholining bir qisminigina tashkil etadigan mahalliy boylar, volosnoy, qozi, oqsoqol hukumatdagi 2-3 yil xizmati vaqtida odamlarni talon-taroj qilib, ko‘shk, bog‘, molu hol, katta yer sohibiga aylanardilar. Mehnatkashlarni g‘orat va toroj qilishda mullalar-u eshonlar ham ulardan qolishmasdi. Bu mahalliy mansabdorlaru qorindorlar vaziyatdan juda mamnun edilar, zero, ularni hukumat himoya qilardi.

IKKINCHI DAFTAR

Shu o‘rinda bir izoh berib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Biz ularning dushmanligini ko‘rsatuvchi tatarlarning bir maqolini ham keltirib o‘tdik. Holbuki, qishloqlarda yashayotgan rus aholisining aksariyati asli kelib chiqishi qishloqlik kishilar va batraklardan edi. Chindan ham ularning yaxshi odat va amallari bo‘lib, bunday axloqiy sifatlar boshqa millatlarda kamyob hodisadir. Masalan, mehmondo‘stlik, soddadillik fazilatlari ko‘zga tashlanishi barobarida, ular o‘zlarini boshqa millatlardan ustun hisoblashmasdi. Shunday ekan, nega ular bizga dushman bo‘lib qoldi?

Muammo shundaki, mamlakatni idora qilayotgan, monopoliyalarning egasi bo‘lgan rus dvoryanlari Pyotr I zamonidan boshlab g‘arbning har xil urf-odatlarini, turlicha bo‘lgan turmush tarzlarini pala-partish qabul qilgan edilar. Ularning farzandlari ham bir millat vakilining qo‘lida tarbiya topgan bo‘lsa, oilada o‘shalarning udumlariga amal qila boshlashdi. Shu bilan birga, g‘arbdan ko‘chib kelib Rusiyaga muqim o‘rnashgan boshqa millat vakillari ham “rus” nomi bilan atalaverilgan. Shu tariqa g‘arbning eng bo‘lmag‘ur, yaramas odatlari rus hayot tarziga kirib kelaverdi.

To‘g‘risini aytganda, ular orasida ham yaxshi odamlar anchagina topilardi.

(Davomi kelgusi sonda).

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 4628
Lotin yozuvidagi adadi – 11811
Buyurtma: G – 240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:35
Sotuvda narxi erkin.